

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti

“Himoyaga  
tavsiya etilsin”  
Fakultet dekani

\_\_\_\_\_ f.f.n., dots.  
“ \_\_\_ ” - \_\_\_\_\_ 2018-y.

– O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi IV kurs  
403-guruh talabasi Yunusova Gulhayo Farxod qizining **“Epik asarlarning  
ta'lim bosqichlarida o'rganilishi. Pirmqul Qodirov “Yulduzli tunlar” asari  
misolida”**mavzusida yozilgan.

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**  
\_\_\_\_\_ Z.Mirzayeva ,  
kafedrasi

**Taqrizchilar:**  
**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

TOSHKENT – 2018

## **Mundarija**

**Kirish. BMLning umumiy tavsifi. . . . . 3**

### **I bob. Epik tur va janrlarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi**

**1.1. Epik tur va uning xususiyatlari haqida. . . . .**

**1.2. Romanga integrativ yondashuv. . . . .**

### **II. bob. Ta'lim bosqichlarida epik asarlarni o'rganilishi.. . . .**

**2.1. "Yulduzli tunlar" romanini o'rganish usullari . . . . .**

**2.2. Epik asarlarni o'rganishda jahon standartlari. . . . .**

**III. bob. Ishning amaliyotga tatbiqi . . . . .**

**Xulosa. . . . .**

**Ilovalar ( tarqatma materiallar, testlar, ochiq dars ishlanmalaridan  
namunalar) . . . . .  
. . . . .**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati . . . . .  
. . . . .**



*Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz,  
jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga  
oshirilayotgan islohotlarimiz va rejalarimizning samarali taqdiri,  
avvalombor, davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli  
tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan  
bog'liq...*

***I. A. Karimov***

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limiy islohotlarning ikkinchi – sifat bosqichi kechayotgan mavjud sharoitda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni<sup>1</sup> hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» da belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirishga erishish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda dastur mazmuniga tegishli o'zgartirishlarni kiritish yo'lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

**Mavzuning o'rganilishi.** Adabiy ta'limning sifatini oshirish va bu boradagi izlanishlarni umumlashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan va hamon zamon bilan hamnafas holda metodik tadqiqotlar davom etmoqda. Adabiyot o'qitishning dolzarb masalariga doir tadqiqotlar sirasiga S. Dolimov<sup>1</sup>, A. Zunnunov<sup>2</sup>, N.Hotamov, Q. Yo'ldoshev<sup>3</sup>, B.

---

<sup>1</sup> Dolimov S. Ubaydullayev H. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 1976.

<sup>2</sup> Zunnunov A. Hotamov N. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 1992.

<sup>3</sup> Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996.

To'xliyev<sup>4</sup>, R. Niyozmetova singari olimlarimizning ilmiy asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ammo qayd etilgan ishlarda aynan maktab o'quvchilarining yosh xususiyatiga xos bo'lgan ta'limni maqsadli zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish masalasi alohida muammo sifatida o'rganilmagan. Chunki ta'lim jarayoni ko'p bosqichli yaxlit tizimga ega bo'lib, uning har bir bosqichi ta'lim oluvchilarning yosh hamda o'ziga xos xususiyati, ta'lim-tarbiya jarayonidagi intellektual qobiliyatiga hamda ta'limni izchil, tizimli va uzviy amalga oshirilishiga bog'liqdir. O'quv jarayonini texnologik yondashuvlar asosida tashkil etishda o'quvchi bo'lajak mutaxassis sifatida ta'lim jarayonining bosh ob'ekti va sub'ekt ekanligini ko'plab olimlar e'tirof etgan bo'lsada alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Uning ehtiyoji, qobiliyati, qiziqish va imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va ta'lim so'ngida erishiladigan natijasi o'z takomiliga ega emas. Bu esa biz tanlagan BMI mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»** asarida O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan<sup>5</sup>. Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik

---

<sup>4</sup> To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 2006

<sup>5</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 6.7.

xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham birinchi prezidentimiz o'zining «**Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch**» asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim," deb ta'kidladi<sup>6</sup>. "Erkin shaxsni shakllantirish muommosi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni pedagogik texnologiya ko'rigidan o'tkazishni taqozo etadi"<sup>7</sup>

**BMning maqsadi:** Epik asarlarni o'rganish uchun belgilab olingan maqsadlar quyidagilar:

- Epik asarlarni o'rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish;
- Epik asarlarni tarbiyaviy tomonini o'quvchilar ongiga singdirish va ezgulik ruhida tarbiyalash;
- Darslarni interfaol tarzda olib borish va dars samaradorligini oshirish;
- Epik asarlarning ma'rifiy-badiiy qimmatini aniqlash. Maktab o'quvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida didaktik imkoniyatlarini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Tadqiqotni yoritib berishda birinchi prezidentimizning ilmiy asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning

---

<sup>6</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

<sup>7</sup> Gulbahor Izetayeva "O'quv jarayonlarini texnologik yondashuv asosida tashkil etish" Xalq ta'limi 2013-yil

adabiyot darsliklari va bu mavzuga doir monografiyalar, dissertatsiyalar, hamda ilmiy maqolalarga tayaniladi.

**BMning vazifalari:**

1. Ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoning mavjud holatini o'rganish.

2. Ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoni asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarni belgilash.

3. Ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish jarayoni asosida tashkil etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash.

4. Uyg'unning adabiy-badiiy asarlarini tahlil qilishning filologik-pedagogik talqini.

**BMI metodlari:** BMI muammosiga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmunini o'rganish, nazariy jihatdan tahlil etish; maktab o'uvchilarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etishning mavjud holatini o'rganish; pedagogik kuzatuv; suhbat; anketa so'rovi; pedagogik tajriba; matematik-statistik metod.

**BMning metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar va hokazo.

**BMning ilmiy yangiligi:** Epik asar hisoblangan “Yulduzli tunlar” asari darsliklarda va metodika sohalorida o’rganilgan bo’lsa-da, lekin bu asar g’oyaviy jihatdan unchalik o’rganilgan emas shu sababdan ham men bu asar badiiy-estetik tasir kuchini o’quvchilar shuuriga singdirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishini o’z oldimga maqsad qilib oldim.

**BMning nazariy ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:** Ish amalga oshirilish jarayonida maktab darsliklarida o’quvchilarning o’quv, bilim faoliyatini izchil shakllantirishga yo’naltirilgan nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, epik asarlarni o’qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish to’g’risida tegishli ko’rsatma va tafsiyalar beriladi.

**BMning amaliy ahamiyati:** O’quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish omillari, yo’llari, pedagogik shart-sharoitlari ko’rsatib berildi. BMLishida ilgari surilgan nazariy qarashlar boshlang’ich siflarda ta’lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**BMning ilmiy farazi:** maktab o’quvchilarda ta’limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etish vositasida ta’lim samaradorligiga erishish mumkin, agarda:

- mazkur o’quv maskanlarida ta’limni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv qaror topsa:

- maktab o’quvchilarda ta’limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari jarayonida fanlararo aloqadorlikning ta’minlaniga erishilsa;



- maktab o'quvchilarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari asosida tashkil etishni amaliyotga tatbiq etilishiga erishilsa.

- maktab o'quvchilarda ta'limni adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullariga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa.

**BMning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Ushbu ilmiy bitiruv ishining mavzusi Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti univerisiteti, O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti, adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lib, kafedraning umumiy mavzusidan kelib chiqqan holda tanlangan.

**BMI tuzilishi.** Ish kirish, 3 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## I bob. Adabiyotshunoslikda tur va janrlar

Epik turning xususiyatlari haqida gap ketganda avvalo voqea bandlikni tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi, soʻz vositasida oʻquvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan toʻlaqonli badiiy voqelik yaratiladi. Tasavvurda reallikdagiga monand, oʻzining tashqi shakli bilan jonlangani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni "plastik" tasvirlangan deb aytiladi. Epik asarda plastik elementlar bilan bir qatorda noplastik elementlar ham mavjud boʻlib, bu elementlar muallif obrazini tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Epik asarning noplastik elementlari deyilganda muallifning mushohadalari, fikrlari, tasvir predmetiga hissiy munosabati kabilar tushuniladi. Tabiiyki, noplastik unsurlar, plastik unsurlardan farqli oʻlaroq, asarni oʻqish davomida oʻquvchi tasavvurda jonlanmaydi. Epik asarda obyektiv va subyektiv ibtidolarning uygʻun birikishi kuzatiladi: asardagi badiiy voqelikni biz shartli ravihda obyektiv ibtido deb olsak, asar toʻqimasining har bir nuqtasiga singdirib yuborilgan muallif shaxsini biz subyektiv ibtido deb yuritamiz. Badiiy voqelikni shartli ravishdagina "obyektiv" ibtido deyishimizga sabab, u reallikdan olingan oddiygina nusxa emas, balki voqelikning ijodkor koʻzi bilan koʻrilgan, ideal asosida idrok etilgan, baholangan va ijodiy qayta ishlangan aksi ekanligidir. Shunday ekan, muallif obrazi hatto "obyektiv tasvir" yoʻlidan borilib, muallif imkon qadar oʻzini chetga olgan asarlarda ham mavjud boʻlishi tabiiydir. Demak, epik asarlarda badiiy voqelik bilan bir qatorda noplastik muallif obrazi ham har vaqt mavjuddir.

Epik turga mansub asarlar asosan nasriy yoʻlda yozilishi, shuningdek, nasriy yoʻlda lirik asarlar ham yaratilishi mumkinligini ilgari aytili. Demak,

nasriy yo'lda yozilganligining o'ziga asarni epik deyishimizga asos bermaydi, "nasriy asar" va "epik asar" tushunchalari bitta ma'noni anglatmaydi.

Voqeabandlik epik turning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Epik asarda, odatda, makon va zamonda kechuvchi voqealar tasvirlanadi, muallif yoki hikoyachi-personaj tomonidan hikoya qilinadi. Bu esa epik asarlarda rivoya, tavsif, dialogning qorishiq holda kelishini taqozo qiladi, zero, ularning bari birlikda o'quvchi tasavvurida badiiy voqelikni plastik jonlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eposda rivoya an'anaviy ravishda yetakchi o'rinni egallaydi, uning vositasida asarga dialog hamda tafsilotlar (peyzaj, portret, narsa-buyumlar va h.) olib kiriladi. Rivoya bu unsurlarning barini yaxlit butunlikka birlashtiradi.

Epik turning takomili jarayonida undagi rivoyaning salmog'i kamayib borishi kuzatiladi. Masalan, xalq og'zaki ijodidagi ertaklar, hikoyat va rivoyatlarda rivoyaning salmog'i katta bo'lgani holda, dialogning salmog'i unchalik katta emas, tafsilotlar esa badiiy voqelikni to'laqonli tasvirlashga ko'pincha yetarli bo'lmaydi. Rivojlanish jarayonida eposda keyingi ikkisinin salmog'i va ahamiyati ortib boradi. Bu narsa badiiy adabiyotning boshqa san'at turlari bilan aloqasi, ularga xos usul va vositalarni o'ziga singdirishi natijasidagi tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengayishi sifatida tushunilishi mumkin. Masalan, dramaturgiya va teatrning rivojlanishi natijasida inson xarakterini yaratishning dramaturgik usullari ishlab chiqildi, sayqallandi; teatr san'atining rivoji o'quvchi ommani dramaturgik usulda yaratilgan inson xarakterini anglashga, dialoglar vositasida yaratilayotgan badiiy voqelikning mohiyatini tushunishga tayyorladi, ya'ni, badiiy didni rivojlantirdi. Shu asosda eposga dramatik unsurlar kirib keldi. Epik asardagi

dialog dramatik asardagi dialogdan o'zining hayotiyligi, ma'no ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi. Buning asosi shundaki, epik asarda dialog amalga oshayotgan konkret hayotiy situatsiya, unda qatnashayotgan personajlarning ruhiy holati, xarakter xususiyatlari haqida kengroq tasavvur berish imkoniyatlari mavjud. Ya'ni, personajning dialogda aytilayotgan har bir gapi butun asar kontekstida tushunilishi mumkin.

## 1.1 Epik tur va uning xususiyatlari haqida

Lisoniy ta'lim o'quvchi dunyoqarashini shakllantiradi, uning olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitadi; oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratishga o'rgatadi. Badiiy asarlarni o'rganish orqali o'quvchining falsafiy qarashlari kamol topadi, mushohadalari teranlashadi. Hayot – katta maktab. Shunday bo'lsa ham o'quvchini ana shu hayotning butun murakkabliklariga sabot va matonat bilan chidashga, uning zalvorli sinovlarini yengib o'tishga, eng qiyin damlarda ham o'zini yo'qotmay oldinga intilishiga o'rgatadigan beminnat maslahatchi, samimiy do'st – bu adabiyot, adabiy ta'lim hisoblanadi.

“Maktabda adabiyotni so'z san'ati sifatida o'qitish o'quvchilarda uni emotsional qabul qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini kamol toptirishni taqozo etadi. O'quvchida hayotni, hayotiy voqea-hodisalarni bilishga, odamlar va ularning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug'ilishi bilan adabiyotni anglashga anglashga qiziqish paydo bo'ladi. O'qituvchi badiiy asarni o'qitish orqali o'quvchilarda hosil bo'lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, ularni san'at olamiga olib kiradi, o'quvchilarning yoshi, bilim darajasini hisobga olgan holda ularning badiiy didini o'stiradi”<sup>1</sup>.

Badiiy tahlilda qat'iy ilmiy tartibga rioya etgan holda so'zdan obrazga, obrazdan g'oyaga qarab boriladi va tahlilning barcha bosqichlarida badiiy so'zning estetik jozibasi diqqat markazida turadi. Tahlil etilayotgan asarni qaysi jihatdan o'rganish, tadqiq etish lozimligini belgilash uning yo'nalishini tayin etadi. Badiiy asar tahlilning to'laqonli bo'lishi, ko'p jihatdan, tahlilchining matnni qanday yo'nalishda tekshirishni aniq bilishiga bog'liqdir. Adabiy asar tahlili bilan maxsus

---

<sup>2</sup> Zunnunov B. Badiiy asar tahlili metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1989, 4-bet.

shug'ullangan mutaxassislarning ko'rsatishlaricha, amaliyotda badiiy tahlil genetik, tipologik, funksional, falsafiy, psixologik va filologik singari olti yo'nalishda amalga oshiriladi. Albatta, bu xildagi tasniflar juda shartli qabul etilishi lozim. Negaki, odatda badiiy tahlil jarayonida bu yo'nalishlardan biri ustuvor o'rin tutishi mumkin bo'lsa-da, deyarli hech qachon bittasi sof holda qo'llanilmaydi. Chunki o'rganilayotgan asarga har jihatdan qarash zaruriyati hamisha saqlanib qoladi.

Badiiy asarni genetik yo'nalishda tahlil etishda asarning yuzaga kelish jarayoni, variantlari, yozilish sabablari tadqiq etilishi ko'zda tutiladi. Bu yo'nalishdagi tahlilda muayyan asarni yuzaga keltirgan omillarning ko'rsatilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tipologik yo'nalishda esa, asar muallifi bilan adiblar orasidagi ijodiy ta'sir, badiiy vorislik, asarni yuzaga keltirgan badiiy yoki hayotiy manbalar, tahlil etilayotgan asarning o'sha davrda yaratilgan boshqa asarlarga o'xshash hamda farqli jihatlari singari jihatlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Funksional yo'nalishda amalga oshirilgan tahlilda tekshirilayotgan asarning ijtimoiy ta'sir kuchiga alohida diqqat qaratiladi. Unda o'rganilayotgan asarning muayyan millat va insoniyat ma'naviyatiga ko'rsatgan ta'siri tekshiriladi. Tahlillanayotgan asarning milliy adabiy jarayonda tutgan o'рни, uning yaratilgan zamondagi odamlar yoki tekshirilayotgan davr kishilari tafakkuriga ta'siri o'rganilishi lozim. Asarda qanday ijtimoiy qonuniyat qaysi obraz orqali ochilganini tekshirishi zarur. Keyingi vaqtda o'zbek adabiyotshunosligida ham Botish estetikasida har doim ustuvor maqomga ega bo'lgan funksional yo'nalishdagi tahlil keng yoyilgan va bu hol bir qator ijobiy xususiyatlar bilan birgalikda tendensiozlik, biryoqlamalik, matnning badiiy jozibasini

e'tibordan qochirish singari salbiy holatlarni ham keltirib chiqaradi. Falsafiy yo'nalishda yozuvchi dunyoqarashining xususiyatlari va tahlil etilayotgan asarda adib e'tiqodining: olamni ko'rish, anglash, tushuntirish hamda aks ettirish tarzining namoyon bo'lishi tekshiriladi. Lekin bunday tahlil badiiy matndan ayri falsafiy mushohadalardangina iborat bo'lib qolmasligiga e'tibor qilinishi kerak. Chunonchi, badiiy matnga bog'lanmagan, ijodkorning ayni o'rganilayotgan asaridan kelib chiqmaydigan har qanday "chuqur ma'noli" xulosa tahlil uchun mutlaqo ahamiyat kasb etmaydi va o'rganilayotgan matnning na badiiy va na falsafiy jihatini ochib beradi.

Psixologik yo'nalishda adibning ijodkor shaxs sifatidagi o'ziga xosligi jarayon psixologiyasi, asar ustida ishlash usuli, shu jarayondagi ruhiy holati va ularning tahlillanayotgan asarda qoldirgan nuqsi, uning saviyasiga ko'rsatgan ta'siri kabilar o'rganiladi. Bunday tahliliy yo'nalishda yuqorida sanalgan jihatlarning qay yo'sinda badiiy uslubga aylangani badiiy haqiqat shakliga kirganligi tekshiriladi. Filologik yo'nalishda asosiy e'tibor o'rganilayotgan asarning estetik hodisa ekanini har jihatdan asoslashga qaratiladi. Bu yo'nalishdagi tahlilda o'rganilayotgan asar filologik hodisa sifatida ham til, ham tasvir vositalari, hamda ular o'rtasidagi davomiylik va novatorlik nuqtai nazaridan tekshiriladi. So'zning o'z va badiiy ma'nosi kontekstdagi jozibasini, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning ham hayotiy, ham estetik sabablari singari bir qator jihatlarga ustuvor e'tibor qaratiladi. Didaktik tahlilni uyushtirishning nazariy asoslarini belgilashdan oldin o'quv tahlilning ilmiy tahlildan farqini aniqlab olish zarur bo'ladi. Aslida, didaktik tahlil ham badiiy matnning sirini kashf etishga, muallifning niyatini anglashga, asar jozibasini ta'minlaydigan

jihatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyatdir. O'quv tahlili bir qator qirralari bilan filologik tahlildan muayyan darajada farq qilsa-da, unga zid narsa emas. Har qanday didaktik tahlil ilmiy tahlil darajasiga ko'tarilishga intiladi va unga yetganda o'quv tahlilidan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishilgan bo'ladi. Ayni vaqtda, badiiy asarni didaktik tahlil qilish filologik tahlil etishdan jiddiy farq ham qiladi.

O'quv tahlili ilmiy tahlil singari faqat ilmiy-estetik faoliyat bo'lib qolmay, balki pedagogik-psixologik jarayon hamdir. Chunki pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik didaktik tahlilning asosiy belgisidir. Agar filologik tahlil, asosan, faqat olimning aqliy faoliyati natijasi bo'lsa, o'quv tahlili o'qituvchining talabalar bilan bevosita muloqoti mobaynida amalga oshiriladigan tadbiridir. Didaktik tahlilning ishtirokchilari ko'proq bo'lishadi va barcha aqliy-estetik operatsiyalar qatnashchilarning imkoniyatlari va saviyalariga moslashtirilgan holda bajariladi. O'quv tahlilidan maqsad badiiy asarni to'g'ri qabul etish orqali o'quvchilarda shaxslik sifatlarini shakllantirishdan iboratdir. Didaktik tahlilning vazifalari badiiy asarning o'ziga xosligi, jozibasini va ta'sir qilish sabablarini aniqlash orqali talabalarda ta'sirchan qalb, hassos tuyg'ular, sog'lom estetik did, ravon va ifodali nutq shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko'ra o'quv tahliliga badiiy asar matnining hayotiy va badiiy mantiqi hamda estetik jozibasini kashf etish orqali tarbiyalanuvchilarda komil insonga xos ma'naviy belgilarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat tarzida ta'rif berish mumkin.

Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Taniqli metodist M.A.Ribnikova:



«Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi... Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, Biroq lirik she'ni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib, qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfda o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi»<sup>8</sup>.

Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi. professor Q.Yo'ldoshevning yozishicha, «turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi». Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, «asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi»<sup>9</sup>.

Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush

---

<sup>8</sup> Рыбникова М. А. Очерки по методике литературного чтения. М.: 1963. С. 42.

<sup>9</sup> Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O'qituvchi, 1996.

va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalaniladi. Bularning orasida adabiy o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o'qishda matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o'zak muammolari o'quvchining ko'z oldida osonroq gavdalanadi. Adabiy o'qishda dastlabki urg'u tushishi lozim bo'lgan o'rinlar ajratiladi, ular o'quvchilarning ongiga ham, tuyg'ulariga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Gap hikoyalar ustida borar ekan, ularda «har qanday hissiyot voqealar qa'riga berkitilgan bo'lishiga e'tibor berish zarurati bo'ladi, Chunki qahramonlarni hayotiy voqealar og'ushida ko'rsatish xususiyati hikoyalarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o'quvchidan bu sezimlarni ilg'ab olish talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida ayni shu malakani – hikoyalar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi.

Adabiy o'qish o'qituvchining ish faoliyatidagi asosiy metodik vosita bo'la oladi. Adabiy o'qish vositasida alohida olingan qahramonning, yoki bir necha qahramonlarning saviyasi, ularning asarda tutgan mavqei, asar mavzusi, yozuvchi ko'zda tutgan badiiy-estetik niyatning ifoda tarziga e'tibor tortilishi mumkin. Masalan, Akademik litseylarning 1 bosqichida Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni yoki Rabg'uziyning «Qissayi Rabg'uziy» asarini o'qish jarayonida har ikki adib tanlagan janrlarning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o'quvchilar mazkur asarlarning asl mohiyatini, ularda ko'zda tutilgan badiiy-estetik mohiyat mag'zini chaqa olmaydilar. Natijada ulardagi haqiqiy badiiy tarovat yo'qqa

chiqadi, ular o'quvchilar ongiga etib bormaydi, ularning qalblarida tegishli his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga yordam berolmaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb hunar kollejlarning adabiy dasturlarida xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, shuningdek, jahon adabiyotiga mansub bo'lgan xilma-xil janrlardagi epik asarlarni o'rganish ko'zda tutiladi. Jumladan, 5-sinfda «Uch og'a – ini botirlar», «Susambil» xalq ertaklari, H.Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», Hans Kristian Andersenning «Bulbul», Janni Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchukcha» adabiy ertaklari, Alisher Navoiyning «Sher bilan Durroj», Sa'diyning kichik hikoyalari, Abdulla Qodiriyning «Uloqda», G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam», Oybekning «Fonarchi ota», Nodar Dumbadzening «Hellados», O'tkir Hoshimovning «Urushning so'nggi qurboni» hikoyalari berilgan. Ko'rinib turibdiki, faqat 5-sinfning o'zidayoq hikoya janriga mansub bo'lgan xilma-xil asarlar taqdim etilgan. Ayni paytda boshqa sinflarda og'zaki ijodning doston, yozma adabiyotning roman janrlaridan namunalarni o'rganish ham ko'zda tutiladi. Xuddi shuning uchun ham ularning har biriga o'zlari mansub bo'lgan janrlar nuqtai nazaridan yondashilishi zarur bo'ladi, aks holda o'quvchilarda noto'g'ri taassurot yuzaga kelishi, ko'zda tutilgan badiiy-estetik samara olinmasligi mumkin.

Adabiy asarning, jumladan hikoyalarning matni ustidagi ish adabiy ta'limning o'zak masalalaridan biridir. U o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratadi. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar asarning poetik mohiyatini anglab yetadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talqinlariga e'tibor

qaratadi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi voqealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi.

Hatto ayni bir xil janrlardagi epik asarlar tahlilida ham o'ziga xos yondashuvlar talab etiladi. Alisher Navoiyning «Xamsa»si tarkibida beshta doston bor. Ularning barchasi bir xil janrlarda yozilgan. Shunga qaramay, ularning har biri o'z oldiga mutlaqo boshqa-boshqa badiiy-esteik maqsadlarni qo'ygan. Demak, Ularni tahlil qilishda ham shu andozadan kelib chiqish zarur bo'ladi. «Hayrat ul-abror» falsafiy-didaktik doston. Unda adibning olam va odamga qarashidagi o'ziga xosliklar falsafiy-axloqiy ruhdagi hikoya, qissa va mulohazalar orqali ifodalanadi.

«Farhod va Shirin»da qahramonlik yo'nalishi ustuvor. U ishqiy-romantikaga to'yintirilgan qahramonlik dostonidir. «Layli va Majnun» esa adabiyotimiz tarixidagi «eng fojaviy ishq qissasi» sifatida mashhurdir.

«Sabbai sayyor» – ishqiy-sarguzasht yo'nalishida bo'lsa, «Saddi Iskandariy» qahramonlik dostonidir. Ularda insoniyatning o'ziga xos ruhiy olami, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'naviy qarashlari, o'sha davrlardagi ijtimoiy hayot manzaralari aks etgan. Ularda voqealar qamrovi nihoyatda keng, ishtirok etuvchi qahramon va personajlarning soni ham ko'p, ularning har biriga bog'liq ravishda esa muallif ko'zda tutgan badiiy niyat ham rang-barangdir. Tahlil jarayonida mana shu rang-baranglik ham doimiy e'tiborda turishi kerak bo'ladi.

Ularning qay birini tahlil qilayotganda qanday usul va yo'llardan foydalanish kerak degan savolga bir xildagi javob berish mumkin emas. Bu vazifani alohida olingan sharoit, sinfning o'ziga xosligi, o'quvchilarning adabiy tayyorgarligi, qolaversa, o'qituvchining o'z bilim va tajribasidan kelib

chiqib hal etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hikoyalarni tahlil qilishda ham o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi asosiy o'rinda turadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6-sinflarida asosan eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o'rganiladi. Yirik epik asarlarni o'rganish esa yuqori sinflarda, shuningdek, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'rganilishi rejalashtirilgan. Ularning har birini o'rganishda o'ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu qarash hajm nuqtayi nazaridan. Hikoyalarning o'zini ham tanlashda, albatta, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mazmuniy jihatdan ham sinfdan sinfga murakkablashib boradi.

Masalan, akademik litseylarning 2-bosqichida Navoiyning epik asarlari, jumladan, «Xamsa» dostonlarini o'rganish belgilangan. Dastlab, Navoiyning hayoti va ijodi o'rganilar ekan, unda adibning adabiy merosi, bu merosning faqat o'zbek adabiyoti rivojida emas, balki umumturkiy adabiyot tarixida ham, jahon adabiyoti tarixida ham nihoyatda ulkan voqea bo'lganligi qayd etiladi. So'ng adibning asar ustidagi jiddiy mehnatini ko'rsatib beruvchi epizodlarga e'tibor tortiladi. Bunday o'rinlar beshala dostonida ham istagancha topiladi.

O'qituvchi o'zi uchun qulay bo'lgan variantdan foydalanishi mumkin. Bularning natijasida o'quvchilarda Alisher Navoiy dahosini ta'minlagan ijodiy rivojlanish bosqichlari haqidagi asosli va real tasavvurlar hosil bo'ladi. Ular adib ijodining ilmiy-ma'rifiy hamda badiiy-estetik ahamiyatni teranroq ilg'aydilar. Bunga erishish esa osonlikcha kechmaydi. Bu natija turli-tuman metod va usullar qo'llanishini taqozo etadi. Bular orasidan biz o'qituvchining kirish so'zi, yakunlovchi ma'ruzasi, o'quvchilarning mustaqil

ijodiy ishlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ularda asarlardagi asosiy g'oyaviy-badiiy mag'iz, alohida olingan epizodlarning asarning yaxlit sujeti va kompozitsiyasi bilan aloqadorligi, oldingi sinflarda Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq holda o'rganilgan materiallarni eslash va takrorlash nazarda tutilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir narsani eslatish ham o'rinli bo'ladiki, hajmiga ko'ra yirik bo'lishiga qaramay, zamonaviy romanlarni tahlil qilish ham oson bo'lmasada, Navoiy asarlarini, umuman, mumtoz epik asarlarni tahlil qilishning qo'shimcha qiyinchiliklari oz emas. Ayniqsa, ulardagi eskirgan so'zlarning ko'pligi, o'sha davr badiiy talablari, shuningdek, bevosita adib uslubi bilan bog'liq holatlar shular jumlasidandir. Buning ustiga yirik epik asarlarni o'rganish uchun talab etiladigan vaqt ham nihoyatda chegaralagan. Qisqa bir vaqt ichida nihoyatda katta vazifalarni hal qilish zaruriyati o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlarni qidirishni taqozo etadi.

Metodist olim Safo Matjonning guvohlik berishicha, «Ayrim o'qituvchilar epik asarlar tahlilini jo'nlashtirib, yozuvchini o'quvchi bilan yonma-yon qo'yib qo'yadilar. Holbuki, o'quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga «qahramonning bu ishi to'g'rimi?», «Uning o'rnida bo'lganda nima qilar eding?» kabi ijodiy fikrlashga qaratilmagan savollar o'rniga: Shu vaziyatda qahramon o'zini boshqacha tutishi mumkinmidi, Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?» singari savollar qo'yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug'iladi.

Rus metodistlarining guvohlik berishicha, «Belkin qissalari» va «Dama qarg'a»ni o'qigan o'quvchilar Pushkin prozasini uning bor boyligi bo'yicha

tasavvur qila olishmaydi. Asosan qissalarning sujeti tushuniladi, bu ham uning qisqaligi uchun juda chuqur o'zlashtirilmaydi. O'ninchi sinf o'quvchilari mustaqil o'qishdan keyin muallif nuqtayi nazarini ham, Pushkin prozasining badiiy fazilatlarini ham anglab yetishmaydi»<sup>10</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan nutqida tarbiyachilarning o'zlariga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish dolzarb masala bo'lib, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu ekani, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerakligi xususida to'xtalgan edi.<sup>11</sup>

Adabiyot o'qituvchisi o'quvchilardagi mustaqillikni, ijodkorlikni tarbiyalashda alohida rol o'ynaydi. Bu undan har bir o'quvchidagi alohida xususiyatlarni juda mukammal darajada sezishi, uning adabiyotga bo'lgan havasini oshirishda foydalanishini taqozo etadi.

Abdulla Avloniy inson shaxsining kamol topishida, uning tarbiyasida muhim bo'lgan bir qator omillarni sanaydi: «Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi-maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir», deb javob beradi. Avval o'zlari "dorulmuallimin»larda o'qumaklari, so'ngra dars bermaklari lozimdur» Mudarrislar o'z vazifalarini bilub, nafslaridin kechub, zamong'a muvofiq ravishda darslarini istiloh qilub, imtihon birla o'qutmaklari lozimdur»...<sup>12</sup>

O'qituvchi shaxsi haqida gap ketganda V.G.Belinskiyning quyidagi fikrlarini nazardan qochirmaslik zarur: «Bola... o'smir, keyin esa yigit bo'lib yetishadi, qarabsizki, erkak ham bo'lib qoladi, shu boisdan uning qobiliyati

---

<sup>10</sup> В. Г. Маранцман. Роман А.С. Пушкина «Евгений Онегин» в школьном изучении. М.: 1983. С. 27.

<sup>11</sup> Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: "O'zbekiston", 2009.

<sup>12</sup> Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.

takomilini kuzatib boring hamda, shunga ko'ra, tarbiya usullaringizni o'zgartiring, undan hamisha yuqori turing; aks holda, holingizga voy: bola siz bilan yuzma-yuz turib ustingizdan kuladi. Uni o'rgatar ekansiz, o'zingiz yana ham ko'proq o'rganing, aks holda, u sizni ortda qoldirib ketadi: bolalar tez o'sishadi» .<sup>13</sup>

O'qituvchining o'zi o'qitayotgan fan asoslarini mukammal bilishi, bil-ganlarini o'quvchilariga etkaza olish darajasigina emas, hatto uning o'zini tutishi, nutqi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. M.V.Klarin bu haqda shunday deydi: «o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan pauzaning davomiyligi singari «mayda narsa» o'quv dialogining, sinfdagi o'zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazadi» .

Yirik metodist olim A.Zunnunov ta'kidlaganiday: «Adabiyot o'qituvchisi har bir inson badiiy adabiyotsiz kamolotga erisha olmasligini o'z o'quvchilari ongiga, qalbiga singdirishi lozim. O'qituvchilik kasbi har bir adabiyot o'quvchisidan o'zini doimiy suratda kamol toptirib, o'zida badiylikka moyillikni va ijodkorlikni o'stirib borishni talab etadi. U egallagan kasb jamiyatdagi ijtimoiy tuzum, ideologiya va madaniy hayotga bog'liq holda yangi ma'noga ega bo'lib boradi» .<sup>14</sup>

Adabiyot darslarini tasnif qilishda bir qator qarashlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalganlari sifatida an'anaviy va noan'anaviy adabiyot darslarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Adabiyotga oid darslarning shakllari ko'p. Eng ko'p tarqalgan turlar sifatida ma'ruza, suhbat, seminar, konferensiya, bahs-munozara, musobaqa va boshqa darslarni ko'rsatish mumkin.

---

<sup>13</sup> K.Usmonova. Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2004, 3-13-betlar.

<sup>14</sup> Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish. – T. : Fan, 2006



Adabiyot darslarining nazariy jihatlari haqida M.I.Maxmutov, M. N. Skatkin, Yu. K. Babanskiy, V. V. Golubkov, N. I. Kudryashev, O. Yu. Bogdanova, G.I. Belenskiy, L. N. Lesoxina, L.S. Ayzerman, E. N. Ilin, A.Zunnunov, M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, S.Matjonov va boshqa metodist olimlarning tadqiqotlari mavjud. Ularda adabiyot darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o'quvchilar faoliyatini yo'lga quyish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma'rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlari, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o'рни va ahamiyati, bunda o'quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini tashkil etishning yo'l va usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Mazkur tadqiqotlar nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham o'qituvchilarimiz uchun dasturulamal bo'la oladi.

Adabiyot darslarida o'quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkonlari mavjud. Xususan, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan alohida ishlashning qo'shib olib borilishi yaxshi samaralar beradi. Adabiyot darslarida o'qituvchi shaxsining mavqei alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu shaxs darsning maqsad va vazifalarini, adabiy materialni tanlashni, qaysi mavzularni o'tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilaydi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib boradi.

Adabiyot darslarining tarkibiy qismlari va bu qismlarning o'zaro munosabatlari alohida e'tiborga molik. An'anaviy darslar o'rniga yangicha shakl va usullar kirib kelyapti, ta'lim jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalar davri boshlandi, deb ayta olamiz.

Alohida adiblar, adabiy asarlar, ular yashagan yoki yaratilgan tarixiy davrlar bilan bog'liq holda esa kirish mashg'ulotlari, o'qish, badiiy asarni tahlil qilish kabi yakunlovchi mashg'ulotlar tashkil etilishi mumkin.

Bevosita materialning mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda badiiy asarning o'zini o'rganish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish, o'quvchilar nutqini o'stirish kabi darslar ajratiladi. Badiiy asarni idrok etish, uning matni ustida ishlash, asar ustidagi umumlashtiruvchi ishlarini tashkil etish bilani bog'liq bo'ladigan darslar ham mavjud.

Adabiyot darslarida o'quvchilar olgan bilimlarini, egallagan ko'nikma va malakalarini nazorat qilish ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda bu sohada ayniqsa, test savollariga javob olish yo'li bilan o'quvchilar bilimini baholash keng yoyildi. Ayrim tarixiy sanalarni bilishda, yozuvchining hayotiga, adabiy asarning yaratilishiga bog'liq fakt va hodisalarni o'rganish bilan aloqador holda bu usuldan foydalanish yaxshi samaralar beradi. Ammo o'quvchining adabiy asarni idrok etish darajasini, uning adabiy qobiliyat va iste'dodini to'la bilish va baholash uchun faqat test sinovlarining o'zi kamlik qiladi. U og'zaki suhbat, o'quvchilarning yozma nutq malakalarini kuzatish bilan qo'shib olib borilsagina baholash to'laqonli, mukammal va benuqson bo'ladi.

Adabiyot darslarining samarasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, uning o'quvchi shaxsining kamol topishidagi foydaliligi nazarda tutiladi. Bunda, tabiiyki, uning fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir o'tkazish imkoniyati asosiy o'rin tutadi. Adabiyot darslari shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchilar butun dars davomida o'quv faoliyatining ichida bo'lsin, biror daqiqa bo'lsin ijodiy ishlash imkoniyatidan tashqarida qolmasin.

Sinfda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlari hukmronlik qilmas

ekan, bu yerda ularning faol ishtiroki haqida, to'laqonli o'zlashtirishlari haqida gap bo'lishi mumkin emas.

O'qituvchining o'z darsi oldiga qo'ygan maqsadi, ta'lim muassasasining belgilagan vazifasiga ko'ra ta'lim muammoli yoki oddiy - muammosiz bo'lishi mumkin. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olgan pedagogik jamoa, ularning ijodkorligiga yo'l izlayotgan o'qituvchilar muammoli ta'limni chetlab o'tisholmaydi. Muammoli ta'limni tanlagan o'qituvchi ham, pedagogik jamoa ham o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni to'g'ri va samarali hal etishi mumkin.

Dastlab, muammolilik tushunchasining o'quv jarayonining tuzilishiga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, o'quvchilarning o'quv-biluv jarayonlarini tashkil etish usullariga, bu jarayonlarni boshqarishga dahldor ekanligini ta'kidlash joiz. Bu narsa o'quvchilarga o'tiladigan darsning o'zini ham, ular olishi lozim bo'lgan bilim, egallashlari lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarni ham qamrab oladi.

O'qituvchi qo'lga kiritadigan yutuq, uning pedagogik faoliyatidagi yuksak samara ko'p jihatdan muammoli ta'lim jarayonini tashkil etish nazariyasining mazmuni va mohiyatini nechog'lik anglab etganiga, ta'lim metodlari, texnik vositalarini qanchalik o'zlashtirganiga, olgan nazariy bilimlari va o'zi to'plagan tajribalarni amaliyotga qanchalik uzviy va tizimli tarzda tatbiq etishga bog'liq. O'qituvchining yuksak nazariy tayyorgarligi, o'z sohasidagi fan asoslarini puxta bilishi, ayni paytda pedagogika nazariyasi va tarixidagi asosiy kashfiyot va qonuniyatlarni puxta egallaganligi, metodika sohasidagi yangiliklar ichida yashashi muhim omillar qatorida turadi. Lekin bular silsilasida dars jarayonining o'zini

alohida ta'kidlash joiz. Chunki dars- o'qituvchining borligini namoyon qiladigan jarayon. Yaxshi o'qituvchining darsi bir soatlik spektaklga aylanadi. Buning natijasida esa butun sinf shu fanga nisbatan ayricha mehr va muhabbat bilan qaraydigan bo'ladi. Ko'plab o'quv predmetlarining o'quvchilar tomonidan «yaxshi ko'rib qolinishiga» aynan o'qituvchilar sababchi ekanligini tasdiqlovchi misollar juda ko'p.

Bugun jamiyatimiz oldidagi asosiy vazifa - barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishdan iborat. Barkamollikning belgisi nimada? Bu dastlab, yosh avlodagi fikrlash qobiliyatining darajalari orqali belgilanadi. Agar ularda yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari shakllangan bo'lsa, demak, maqsad amalga oshgan bo'ladi. Buning asosiy belgilari erkin va ijodiy fikrlashda namoyon bo'ladi.

Bularning barchasi o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga, har bir adabiy hodisaga nisbatan ijodkorlik bilan yondoshishlariga imkoniyat yaratadi. «Har bir darsda paydo bo'lgan muammoli vaziyat o'quvchilarda asarni bir butun tahlil qilishda fikrni faollashtiradi, uzluksiz tahlilni yuzaga keltiradi. Muammoli tahlilda o'qituvchining o'rtaga qo'yadigan savolidan tashqari, asar yuzasidan o'quvchilar ham savollar beradilar. Savollar asosida qilinadigan tahlilning afzalligi shundaki, birinchidan, o'quvchilar tahlilda qiyinchilikni his etadilar va ularni yengishga harakat qiladilar, ikkinchidan, tahlil bir maqsad tomon yo'naltirilib, o'quvchilar umumiy masalani hal qilishga imkoniyat beradigan yo'lni topishga harakat qiladilar. Shu zaylda tahlilda bir butunlik ham yuzaga keladi.

80-yillar oxirlariga, xususan, istiqlol davriga kelib ahvol tubdan o'zgardi. Yetmish yillik zug'umlardan so'ng bizda ham falsafiy-mafkuraviy, asos jihatdan xilma-xil yo'nalishga mansub asarlar

paydo bo'la boshladi. Realizm bilan barobar deyarli barcha adabiyot turi, janrlarda diniy, ruhoniyl-islomiy talqin ustuvor asarlar ko'payib bormoqda. Shaxsni faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida emas, ko'proq ilohiy, tug'ma-tabiiy, sirli-sehrli mavjudot tarzida ko'rsatuvchi, uning ijtimoiy tarixi, sharoit-tuzum, davlat, siyosat, mafkuraga bo'ysunmaydigan g'aroyib tuyg'u, xislatlarini ong-idrokidan tashqaridagi anglab etilmagan holatlarini badiiy tadqiq etuvchi asarlar ham yaratilayotir. Omonat, tagi puch g'oyalarga aldangan shaxs umrining, mehnatining bema'niligini qabariq tarzda, ko'pincha ramziy-majoziy timsollar vositasida keskinligi-yu fojeasi bilan ko'rsatuvchiasarlar, qahramonlar ham yaratilmoqda. Xurshid Do'stmuhammadning "Beozor qushning qarg'ishi" hikoyasi ham g'oyat ajoyib tasvirlarga va ramziy elementlarga boy. Asarda tabiatni sevish, jonzotlarga ham ozor bermaslik, beozor jonivorlarni asrab avaylash haqida fikr yuritiladi. Beozorgina qaldirg'ochning qarg'ishi misolida butun bir oilaning fojiasi ochib beriladi. Hikoya shu oilaning kenja qizi Qadriya tilidan hikoya qilinadi. Qadriya maftunkor va mehnatsevar qiz, unga ko'ngil qo'ygan Fozil esa qizning ichki olamiga kirib boorish harakatida. Asarni tahlil qilish va o'rganish jarayonida bir necha zamonaviy pedagogik texnologiyalaran foydalanish kerak. Yozuvchi hayoti bilan tanishgan o'quvchilarga endi uning "Beozor qushning qarg'ishi" hikoyasi o'rgatiladi. Hikoyani o'rgatishdan avval darsga dars o'tish usuli tanlab olinishi lozim. Bu jarayonda kichik guruhlar bilan shakli maqsadlidir. Adabiyot darslarning oldiga qo'yilgan pedagogik vazifalarning echilishidagi vositalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Adabiy materialning mazmuni.
2. Uni o'rganish usullari.

3. O'qitishning texnik vositalari.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlarini amalga oshirish imkonini beradigan didaktik materiallar.
5. O'quvchilar faoliyatini tashkil etish.
6. O'qituvchi shaxsi (M. N. Skatkin).

Adabiyot darslarining tarkibiy qismlari va bu qismlarning o'zaro munosabatlari alohida e'tiborga molik. An'anaviy darslar o'rniga yangicha shakl va usullar kirib kelyapti, ta'lim jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalar davri boshlandi, deb ayta olamiz.

Endilikda ilg'or adabiyot o'qituvchilari darsni uy vazifasini so'rashdan emas, to'g'ridan-to'g'ri uy vazifasini berishdan, yangi mavzuni bayon etishdan, o'quvchilarga mustaqil vazifalar topshirishdan boshlayotganlari odatdagi holga aylanib bormoqtsa. Bu jarayonlarda, ayniqsa, o'quvchi shaxsining faollashuviga imkon beradigan usul va shakllarga ustuvorlik berilayotganligi ochiq seziladi

Bularning barchasi adabiyot darslarining mazmunini boyitishi, o'quvchi shaxsining ma'naviy jihatdan boyishi, estetik jihatdan sezuvchanligiga, hissiyotlarining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Epik asarlarni o'rganishda o'quvchilar e'tibori badiiy adabiyotning ilmdan farq qiluvchi jihatlariga tortiladi. Chunonchi, ilmda olimning xolisligi, betarafliigi, chiqargan xulosasi ko'pchilik tomonidan tan olinishi singari jihatlar bilan kishining tafakkuriga ta'sir ko'rsatsa, badiiy adabiyotda o'qirmanning tuyg'ularini qo'zg'ay olish yetakchi belgi hisoblanadi. Badiiy asar kishining sezimlariga ta'sir ko'rsatish, ijodkorning muayyan holatdagi kechinmalarini o'quvchiga yuqtirishni ko'zda tutib yaratiladi. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda xolislik, betaraflik emas, balki o'qirmanni o'ziga

moyil qilish muhim sanaladi. Chinakam badiiy asarlar yaratilayotganda ijodkor kuchli tuyg'ular og'ushida bo'ladi va o'sha tuyg'ular asarga singdiriladi. Hissiyotlar qurshovidagi kishi esa xolis bo'lishi mumkin emas. Shu boisdan ham badiiy asarda hamisha nimadir yoqlanib, nimadir inkor etiladi. Ijodkor bitiklarining ko'pchilikni befarq qoldirmasligi sababi ham shunda. To'g'ri, asarda muallifning munosabati sirtdan ko'rinib turmasligi, ochiqchasiga bildirilmasligi mumkin. Lekin hamisha asar zamirida uning nuqtayi nazari yotgan bo'ladi.

“O'quvchilarga biror badiiy asar yuzasidan ko'pchilikning bir xil fikrga kelishlari mutlaqo shart emasligini ham bildirish kerak. Negaki, odamzod bir- biridan didi, munosabatlarning turlicha ekanligi bilan ajralib turadi. Binobarin, kimgadir yoqqan narsa boshqasiga mutlaqo ma'qul kelmasligi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Ilmda esa ma'lumki, imkon qadar bir xillik, xulosalarning umumiyliigi muhim sanaladi.”<sup>15</sup>

O'qituvchi o'quvchilari diqqatini badiiy adabiyot uchun so'z asosiy ish quroli ekaniga qaratadi. Olamdagi barcha mavjudotlar orasida mukammalligi, yuksak darajadagi aqliy rivoji, hech bir jonzodda bo'lmagan nutqqa egaligi bilan ajralib turadigan insonga xos murakkab tuyg'u va sezimlar so'z orqali ifodalanadi. Qanchalik mukammal qilib yaratilganiga qaramay, odamzotdagi sezgi muchalarining birortasi so'z bilan ifodalanadigan holatlarni to'liq bera olish qudratiga ega emas.

So'z san'ati bo'lmish adabiyot bilan munosabatda bo'lmaydigan odamning o'zi yo'q. Bolaligida alla tinglamagan, ertak eshitmagan, topishmoq yechmagan, qo'shiq aytmagan, sal ulg'aygach, kitob o'qimagan kishining bo'lishi dargumon.

---

<sup>15</sup> Qozoqboy Yo'ldoshev “Adabiyot saboqlari” Toshkent 2017-yil

Bordi-yu, shunday odam uchraydi, deb faraz qilinganda ham u odam yo televizorda, yoki radioda, yoxud to'y-yig'inlarda, albatta, qo'shiq eshitgan bo'lib chiqadi.

O'qituvchi badiiy adabiyotning lirik, epik va dramatik kabi turlari, har bir tur ichida esa bir qator adabiy janrlar mavjudligi haqida ham tushuncha berishi lozim.

Darslikda bayon etilgan qarashlarning o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirilishiga erishish uchun adabiyot o'qituvchisi badiiy adabiyotning inson ma'naviyatini qaror topdirishdagi alohida o'rne, jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida ham o'quvchilarda tasavvur uyg'ota bilishi joiz. Odamda ezgu ma'naviyat shakllantirishda badiiy adabiyotdan samaraliroq vosita yo'q. Chunki adabiyot, avvalo, insonning tuyg'ulari, kechinmalari, ko'ngli bilan ish ko'radi. To'g'ri, har qanday ko'rkam asar tafakkur mahsuli bo'lib, unda o'ziga xos chuqur fikr ifoda etiladi. Lekin asl badiiy asarlarda yuksak fikr samimiy va kuchli ta'sir qiladigan tuyg'ular og'ushida ko'rsatiladi. Negaki, fikrni bilib qo'ya qolish mumkin, tuyg'uni esa shunchaki tuyib qo'ya qolish mumkin emas. Kechinma qalb hosilasi bo'lgani uchun ham ta'sirchandir va shu bois ijodkorning, yozuvchining hislari o'quvchinikiga aylana oladi.

Nazariy yo'nalishdagi mashg'ulot mobaynida o'qituvchi o'quvchilarining faolligini oshirish uchun "Qanday san'at turlarini bilasiz?", "Bilgan san'at turlarining o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ayting", "Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?", "Badiiy adabiyot nima uchun so'z san'ati hisoblanadi?", "Ilmiy haqiqat bilan badiiy haqiqatning farqli tomonlari qaysilar?", "Badiiy timsol nima?", "Badiiy asar ta'sirchanligini ta'minlagan omillar qaysilar?" singari



savollarni berishi mumkin. Bu savollarga olingan javoblar, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligidan qat'i nazar, rag'batlantirilishi lozim. Chunki hozircha to'g'ri bo'lmagan javob ham vaqti bilan to'g'rilanishi mumkinligi ko'zda tutilishi joiz. Ma'lumki, adabiyot o'qituvchisi uchun bolalarning badiiy matnni tushunganlik va undan ta'sirlanganlik darajasi asosiy o'lchov hisoblanadi. Tushunish va ta'sirlanish yo'lida esa, xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. <sup>16</sup>Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi... Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, Biroq lirik she'rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, etakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezrog' tarzda tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, ettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfga o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmog'larning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi».

Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi. Prof. Q.Yo'ldoshevning yozishicha, «turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi». Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero,

---

<sup>16</sup> M.A. Ro'bnikova "Badiiy asar tahlili" asari. 2001-yil

«asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi».

Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash org'ali o'zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalaniladi. Bularning orasida adabiy o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o'qishda matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o'zak muammolari o'quvchining ko'z oldida osonrog' gavdalanadi. Adabiy o'qishda dastlabki urg'u tushishi lozim bo'lgan o'rinlar ajratiladi, ular o'quvchilarning ongiga ham, tuyg'ulariga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Gap epik asarlar ustida borar ekan, ularda «har qanday hissiyot vog'ealar qa'riga berkitilgan» bo'lishiga e'tibor berish zarurati bo'ladi, Chunki «qahramonlarni hayotiy vog'ealar og'ushida ko'rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o'quvchidan bu sezimlarni ilg'ab olish talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida ayni shu malakani – epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi».

Adabiy asarning, jumladan epik turga mansub bo'lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta'limning o'zak masalalaridan biridir. U «o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan vog'ealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga

imkoniyat» yaratadi. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar asarning poetik mohiyatini anglab etadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talg'inlariga e'tibor qaratadi, tasvirlanayotgan vog'ea-hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi vog'ealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi.

Epik asarlarni tahlil qilishda ham o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi asosiy o'rinda turadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6-sinflarida asosan eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o'rganiladi. Yirik epik asarlarni o'rganish esa yuqori sinflarda, shuningdek, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda o'rganilishi rejalashtirilgan. Ularning har birini o'rganishda o'ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to'g'ri keladi.

## **1.2 . Romanga integrativ yondashuv**

Badiiy asarlar tahlilida fanlararo integratsiyani ta'lim jarayonidagi predmetlarning o'zaro bog'liqligi asosida ba'zi bir ilmiy-nazriy masalalarni yechish usuli sifatida talqin qilar ekanmiz, bunda tizimlashtirishning predmetli asosni va mantiqini sezamiz. Ayniqsa bugungi axborot texnologiyalari taraqqiy etgan davrda o'quvchilarning adabiyot faniga, badiiy aadabiyotga qiziqishini oshirosh va ularda kitobxonlikni tarbiyalash o'qituvchidan yuksak mahorat bilan birga har tomonlama chuqur bilimni talab qilish bilan birga badabiyotning boshqa fanlar bilan bog'liq tarzda o'rgatishni talab qilmoqda. Adabiy ta'limni bunday tarzda tashkil qilish KHK va ma'lum fanlarga yo'naltirilgan ALLardagi yoshlarni adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Bugun jahon miqyosida rivojlanib borayotgan texnologiyalar inqilobi ta'lim sohasida, xususan o'qitish bilan

bog'liq jarayonlarda jiddiy o'zgarishlarni talab qilmoqda. Pedagogik texnologiyalarning ta'lim sifati rivojidagi o'рни va ahamiyati masalalariga qaratilgan, xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlar o'rganilganda ulardagi asosiy e'tibor texnologiyalar integratsiyasi, o'qituvchi va talabning pedagogik texnologiyalarga munosabati, o'qitishda sinkretik yondashuv muammolari, ped texnologiyalarning turli xil nazariy asoslarini yoritib beruvchi masalalarga qaratilganligi ma'lum bo'ldi. Dunyo miqyosida olib borilgan statistik ma'lumotlarda til va adabiyot ta'limida ped texnologiyalarning qo'llanilishi an'anaviy ta'limga nisbatan ko'proq samara berishi ta'kidlangan.<sup>17</sup>

1991-yilda Govard Gardner tomonidan yaratilgan "turfa zakovatlar" (multiple intelligence) nazariyasi ham aynan ta'limdagi integratsiv yondashuv tamoyiliga asoslanadi. Olim, ped texnologiyalar, xususan, integrallashgan texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishidagi ahamiyati haqida to'xtalib, adabiyot darslarini samarali olib borishda vizual yondashuv (visual approach- **muaayyan voqelikni** muayyan badiiy matnni kartalar, suratlar, illyustratsiyalar, tri di modellari, videolar, videokonferensiyalar, televideniya, suratli rasmlar, grafalar va chartlar orqali o'rgatish) dan foydalanishni tavsiya qiladi.<sup>18</sup> Bunday yondashuvda talabalar biror bir mavzuni tashqi omillar orqali o'rganishga hayrixoh bo'ladilar. Gardner nazariyasiga asoslangan pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi asosida rivojlangan vizual yondashuv uslubi vositasida o'qituvchi bir paytning o'zida ko'rish, eshitish va tafakkur qilish orqali muayyan badiiy asar mohiyati, muallifning poetik tasvirlash mahoratini

---

<sup>17</sup> Apple. (2008). Apple classroom of tomorrow today 2: Learning in the twenty-first century. Retrieved from <http://ali.apple.com/>

<sup>18</sup> Қапанг: [www. howard gardner. multiple intelligence.](http://www.howardgardner.com/multiple-intelligence)

chuqur idrok eta olish imkoniga ega bo'ladilar.

Gardnerning "Vizual zakovat" ga asoslangan konsepsiyasi, ayniqsa, klassik adabiyot namunalari, eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan klassik adabiyotimiz, shu jumladan, Alisher Navoiy asarlarini o'rganish, mutafakkirning san'at olamiga yaqinlashish, uning asarlari jozibasini, ramziy obrazlar mohiyatini chuqurroq tushunishda, qulaylik yaratishi tajriba sinovidan muvaffaqiyatli o'tib, davlatimiz rahbari e'tirofiga sazovor bo'lgan edi.<sup>19</sup>

Ammo shu o'rinda aytish joizki, adabiyot fanlarini integrallashgan texnologiyalar vositasida olib borish, xususan texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan tajriba, savodxonlik darajasi nafaqat talabalar balki o'qituvchilar orasida ham talab darajasida emas. Pedagogik texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bo'lsada, uni amalda qo'llash, biror bir mavzuni o'rganishda undan foydalanish ko'nikmasini qoniqarli deya olmaymiz. Ko'pchiligimiz an'anaviy pedagogik texnologiyalar (kompyuter, internet va dunyo vebsaytlari) ning eng oddiy funksiyalaridan foydalanish bilan cheklanamiz. Zotan, bugun dunyo miqyosida texnologiyalardan foydalanish savodxonligini belgilovchi ko'plab talablar (masalan, modellashtirish, ya'ni tahlil va tajriba uchun texnik sistemalar analogiyasini yaratish; bilim boshqaruviga - yangi bilim va malakalarga ega bo'lish uchun bilimlar integratsiyasini tashkil qilish shu asosda kichik tadqiqotlar yaratish ko'nikmasiga ega bo'lish; multimodallik va gipertekstlar yaratish, ya'ni turli xil shakllar va axborot texnologiyalarni birlashtirish usuli orqali yangi kommunikativ vositalarni yaratish va ularni

---

<sup>19</sup> Аlisher Navoiy nomiдаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетининг очилишидаги Президент ташрифига билан боғлиқ архив материаллари, видеолар.

o'qish usullarining individual yo'llarini kashf qilish, o'ylash va ijodiy fikrlashga qaratilgan (Game play) o'yinlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Demak, bugungi texnologiyalar, xususan pedagogik texnologiyalar rivoji shaxs fojeasi uchun emas balki jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga yo'naltirilishi lozim.

Adabiyot darslarida bilimlarni chuqurlashtirish va o'quvchilarning faolligini oshirishda fanlararo integratsiyani amalda qo'llash uchun ta'lim tizimidagi barcha fanlarning adabiyot bilan bog'liq ma'lumotlarini tanlab olishda materiallarning o'zlashtirilaishiga, adabiy ta'limda o'rganilayotgan badiiy asarning boshqa fanlar bilan bog'liqligini amaliy jihatdan isbotlay olishga va anashu bog'liqlikni ta'minlashda bevosita ilmiy mantiqqa, davr bilan hamohangligiga e'tibor qaratish zarur.

Badiiy asar tahlida fanlararo integratsiyadan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish g'oyasi yotadi (Integratsiya [lot. integratio – tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish] – baynalmilal, ko'p ma'noli so'z). Badiiy asar tahliliga bunday yondashuvni ifodalashda yagona qoida asosida yani shakldan mazmunga tarzida ish ko'rish zarur. Shunday qilinganda asar mazmuni va jozibasiga putur yetmaydi. Chunki, bunda bir vaqtning o'zida muayyan voqelik uchun bir qator tasniflarning mavjud bo'lishi fanlararo integratsiya elementlari asar tahlilining yanada mukammal bo'lishini ta'minlaydi. Asar yuzasidan bildirilgan mulohazalar davomida o'quvchining fikrlash qobiliyati o'sadi. Ayni shu jarayonda xilma-xil inovatsion texnologiyalarni tizimli bir loyiha zanjiriga birlashtiridhni o'quvchi va o'qituvchi faoliyatini ijobiy va samarali natijani ta'minlashga mashg'ulotdan ko'zlangan natijani ro'yobga chiqishga xizmat

qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga adabiyot fanini, badiiy asar tahlilini fanlararo integratsiya asosida o'rganishga kirishar ekan, shunday savol tug'iladi: qaysi o'qitish usuli tahlil qilinadi, qanday didaktik materiallardan foydalanish mumkin, asar tahlilini qaysi usullar orqali amalga oshirish samarali bo'ladi? Bu savollarga javob topishda o'qituvchining intellektual salohiyatini namoyon etishda innovatsion texnologiyalardan o'rinli foydalanish talab etiladi.

Umumiy holda usulning tanlanishi ta'lim-tarbiyaning maqsadi bilan aniqlanadi. Ayrim hollarda o'qituvchi o'quvchilar o'rtasidagi faoliyat turlari almashib turadi. Bu hol ko'pincha akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda kuzatiladi. Tabiiyki bunday faoliyat turlariga mos olda o'qitish usullari o'zaro muvofiqlashtiriladi.

Adabiyot o'qituvchisining badiiy asar tahliliga tayyorgarlik ko'rishida metodik usullarni tanlash—uning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirdi, bu esa o'z navbatida o'quvchilar faolligini yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratadi. To'g'ri qo'llanilgan usullar badiiy asarga o'quvchilarda qiziqish va muhabbatni kuchaytiribgina qolmay, asar tahliliga oid ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga boshqa fanlardan olingan bilimlarni qayta xotirlash orqali ularni yanada chuqurlashtiradi. Adabiy asarlar tahlilda fanlararo integratsiyadan foydalanish o'quvchilar bilim doirasini har tomonlama rivojlanishi va kasbiy qiziqishlarini takomillashishiga, amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

Innovatsion texnologiyalarni Adabiyot darslarida badiiy asarni fanlararo integratsiya asosida tahlil qilishganda mavzu maqsadiga mos

tarzda loyihalashtirish quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. O'rganilayotgan badiiy asarni tahlil qilish.

Ta'lim mazmuni elementi sifatida asarning o'ziga xos jihatlari va mavzu doirasi aniqlanadi.(asarda aks ettirilgan voqelik, qahramonlar faoliyati, tarixiy davr va muhit, geografik o'rin). Asar tahlilining muvaffaqiyatli kechishi uchun mos keladigan o'qitish metodlarining muayyan guruhini tanlash.

Badiiy asarning mantiqiy tuzilmasi xarakteri (yaxlit yoki qisman) va psixologik tabiati (mantiqiy-isbotli, hayajonli-timsolli, aniq-harakatli xarakter) belgilab olinadi.

Biluv topshiriqlarining mazmunli jamlamasini ajratish maqsadida badiiy asarning o'ziga xos jihatlari, ichki yo'nalishlari, tomonlari, tafovutlari tahlil qilinadi.

2. O'rganilayotgan badiiy asarning o'quvchilar uchun yangilik va bilimlarni egallashda mustaqillik darajasini, vaqt omili hamda variantlarning mazmunini tahlillash asosida ajratilgan biluv natijalarini maqbullashtirish masalalarini hisobga olib aniqlanadi.

3. Badiiy asarning mazmunidan kelib chiqib o'qitishning muayyan bosqidhidagi tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalalarni yechish zaruratini hisobga olgan holda belgilangan topshiriqlarni tahlillash va baholash.

4. Badiiy asar tahlilida fanlararo integratsiyani amalga oshirish jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni bir-biriga qo'shilishi ketma-ketligini muvofiqlashtirish.

5. Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida ta'lim oluvchilar faoliyatini murakkablashtirish va mustaqilligini oshirish.

Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish uchun mos



usullarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilish lozim.

1. Fanlararo integatsiya badiiy asar tahlilini yuksak saviyada bo'lishiga, o'quvchilarni asar mavzusi va mazmunini va asar jozibasini his qilishlariga yo'naltirilishi lozim.

2. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyani amalga oshirishda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalarning harakatlanish shakli aniqlanadi. Bu o'z navbatida mavzu mazmununi to'liq ochib berilsa, boshqasi uni to'ldirishiga imkon tug'diradi.

3. Tanlangan usullarni o'quvchilar o'quv imkoniyatigaga to'liq mos kelishi, bunda o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlar birligi ta'minlanadi. Real o'quv imkoniyatlarini aniqlashda quyidagi shartlarni aniqlash kerak: o'quvchilarning mustaqil faoliyatga tayyorgarligi (o'quv ishlarini rejalashtirish, mahsg'ulot maqsad va vazifalarini to'liq belgilab olidh, o'z- o'zini nazorat qilish, teskari muloqot o'rnatish); o'quvchilarning ijodiy faoliyatga tayyorgarligi (fikrlash mustaqilligi, asarni badiiy idrok etishi, topshiriq shartlarini belgilash va uni yechish metodlarini mustaqil topidh ko'nikmasi); o'qishga munosabat va boshqalar.

4. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanishda pedagogning shaxsiy imkoniyatlari mos kelishi. O'qitish usullari nazariyasi va amaliyoti o'qitish jarayonining qonuniyatlari, bilish nazariyalari, ta'lim nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasi.

5. Badiiy asar tahlili jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashda o'quv jarayonini innovatsiyon texnologiyalar asosida tashkil etish (Frontal (yalpi) guruhli va individual shakllari). Asar voqealrining ko'lamiga qarab mavzuning murakkablik darajasiga mos holda shakl va uslublarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash.

Akademik litseylarning III bosqich o'quvchilari uchun adabiyot darsligidan Said Ahmadning "Qorako'z Majnun", Odil Yoqubovning "Muzqaymoq", Asqad Muxtorning "To'qqizinchi palata" singari 30 ga yaqin romanlar o'rin olgan. Darslikka bu romanlar bejiz kiritilmagan. Chunki, ushbu romanlarda tasvirlangan voqelik zamiridagi botiniy voqelik xalqimizning ezgu-armonlarini o'zida jamlagan, shuningdek bu romanlarda ezgulik va jaholatning o'zaro to'qnash kelganligini ko'ramiz. Inson uchun eng buyuk baxt bu erk, Vatan va yurtini ozod va obod ko'rishdir. Adiblarimizning litsey darsligidan o'rin olgan yuqorida nomlari keltirilgan romanlarida yozuvchilarning ichki kechinmalari, ruhiy olamidagi iztiroblar, vataniga, xalqiga bo'lgan muhabbati nihoyatda go'zal tarzda badiiy ifodasini topgan.

Adabiyot darsliklarida berilgan har bir asar bevosita yoki bilvosita milliy istiqlol g'oyasining yetakchi tushunchalarini tarbiyalanuvchilar ma'naviyatiga singdirishga qaratilgan. O'qituvchi o'rganilayotgan asar mazmunidan kelib chiqib, yillik reja tuzayotgandayoq, bu tushunchalarni o'quvchilarga qaysi o'rinda, qay yo'sinda yetkazishni belgilab qo'yishi lozim. Masalan, "Ko'zim qarog'idasan, Vatan!" ruknidagi asarlar asosan vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, obod yurt, ozod vatan tushunchalari talqiniga, "O'ylarimning cheksiz osmoni" ruknidagi matnlar ijtimoiy hamkorlik, komil shaxs singari tushunchalarni anglatishga, "O'tmishdan sadolar" ruknidagi mavzular mumtoz asarlar vositasida milliy ma'naviyat ildizlarini bilishga, "Yangi davr nafasi" ruknidagi ijod namunalari o'quvchilarda shaxs erki, o'zlikni anglash, adolat, mas'uliyat, huquq va burch tushunchalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Yangi mavzu bayonida, savol va topshiriqlar bilan ishlashda bular e'tibordan chetda

qolmasligi kerak. Lekin milliy istiqloq g'oyasiga doir fikrlar chaqiriq va shiorlar tarzida yalang'och aytilmay, muayyan asarning tahlilidan tabiiy ravishda keltirib chiqarilishiga erishish zarur. Matndan ajralgan holdagi g'oyabozlik o'quvchini darsdan bezdirib, kutilganidan teskari natija berishi mumkin.

O'quvchilarga adabiyot so'z san'ati ekanligini aytishning quruq o'zi bilan masala hal bo'lib qolmaydi. Ma'lumki, badiiy so'z odamga faqat maktab adabiy ta'limi mobaynida emas, balki uning butun umri davomida sherik bo'ladi. Binobarin, badiiy matndan ta'sirlanish, uni idrok etish, so'zning jozibasini ta'minlagan jihatlarni payqab olish yo'llarini bolalarga o'rgatish katta tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Aks holda, u badiiy so'z olamiga begona bo'lib qolaveradi. Badiiy so'zga begonalik esa ma'naviy dunyoning qashshoqligiga olib keladi. Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi badiiy so'zning qudratini anglatish, uning oddiy so'zdan farqini tuydirish uchun so'zning barcha olamlardagi birlamchi yaratq ekanligiga alohida urg'u berishi kerak.

So'zning ilohiy ildizga ega ne'mat ekani o'quvchilarga anglatilgandan so'ng ana shunday materialdan foydalanib ish ko'radigan badiiy adabiyotga xos xususiyatlarga to'xtalinadi. Bunda so'zning cheksiz badiiy imkoniyatlarga ega ekaniga alohida urg'u beriladi. Chunonchi, san'atning badiiy adabiyotdan tashqari teatr, qo'shiq, kino, opera singari qator turlari uchun ham so'z birlamchi asos ekanligi bildiriladi. Ayni vaqtda, badiiy adabiyotning eng ta'sirchan, eng qamrovli va eng ko'p tarqalgan san'at turi ekanining sabablari o'quvchilarga anglatilishi lozim. Shunday qilinsa, badiiy adabiyot shunchaki maqtab qo'yilmayotgani, balki bu tavsiflar zamirida

hayotiy mantiq va asos mavjudligi o'quvchilarga yetib boradi. So'zning ifoda imkoniyatlari kattaligi, uning vositasida rangni ko'rsatish, tovushni eshittirish, ta'mni tuydirish, isni bildirish, sezimlarni qo'zg'atish mumkin ekanligi turli asarlardan olingan misollar yordamida ko'rsatib berilsa, o'quvchilar badiiy so'zning chindan ham katta qudratga egaligini anglab yetishlari mumkin.

Shu o'rinda so'z makon va zamoni tasvirlash nuqtayi nazaridan ham tengsiz imkoniyatlarga ega ekani o'quvchilarga tushuntirilishi lozim. Masalan, adabiyot darsliklarida o'rganilgan asarlarda bizdan ko'p yillar oldin yashab o'tgan kishilarning tug'ilishi, hayoti, hatto ba'zilarining o'limi ham tasvirlanganligi bolalar esiga solinadi. Boshqa deyarli barcha san'at turlarida inson umrining birgina davri aks ettirilishi mumkin bo'lsa, badiiy adabiyotda odam yoki jamiyatning buguni qanday aks ettirilsa, o'tmishi ham, kelajagi ham o'shanday tasvirlanishi mumkinligi o'quvchilarga anglatilishi kerak. O'smirlar e'tibori san'atning adabiyotdan boshqa har qanday turi inson hayoti yoki hissiyotining faqat birgina holati, davrini ifoda etishiga, badiiy adabiyot esa bir yoki bir necha kishi hayotini tug'ilganidan to o'limiga qadar tasvirlay olishi mumkinligiga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Badiiy asarlarda real borliq yoki inson ruhiyati son-sanoqsiz qirralari bilan aks ettirilishidan tashqari, o'qigan kishining sezgilariga qattiq ta'sir qilish xususiyatiga ham ega. Darslikdagi "Uloqda", "Muzqaymoq" singari epik asarlarning qahramonlari taqdiriga beparvo, loqayd munosabatda bo'lish mumkin emasligi, har bir odam ixtiyorsiz holda bu asarlardagi ayrim personajlarning dardkashi, tarafdori yoki raqibiga aylanib qolishi mumkinligi, buning sababi esa, badiiy so'zning axborot berish bilan

cheklanib qolmay, kishida munosabat paydo qilishida ekani tushuntirilishi kerak. Shu o'rinda muallim yuqorida tilga olingan yoki o'ziga yanada yaqinroq bo'lgan epik asarlardan og'zaki misollar keltirib, yoxud parchalar o'qib berib darslikdagi nazariy qarashlarning o'smirlar ongiga yetib borishiga erishishi kerak.

Obrazli ifoda o'qigan kishiga ta'sir etadigan, uni yo tarafdorga yoki raqibga aylantiradigan qudratga ega bo'lishi bilan ahamiyatli ekaniga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham badiiy asar o'qiydigan, undan ta'sirlana biladigan, uning o'ziga xos xususiyatlarini farqlaydigan o'quvchilarning ma'naviy qiyofasi, aqliy rivojlanish darajasi yuksak bo'ladi.

Adabiyot mashg'ulotlari o'quvchilarni ma'naviyati boy barkamol insonlar sifatida shakllantirishga qaratilganini ta'kidlashlari lozim. Komil shaxs bo'lish uchun esa, kishi o'zgalarni tushunadigan va his etadigan darajaga yetishi zarur bo'ladi. Maktabda o'quvchilar adabiyot tarixi yoki adabiyotshunoslik fanini emas, balki saboqlar mobaynida bevosita badiiy asarlar bilan ish ko'rib, ularni tushunish va tahlil qilish yo'llarini o'rganish orqali o'zlarida ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishlari kerakligi tushuntiriladi.

## **2.1 “Yulduzli tunlar” romanini o'rganish usullari**

Asar nafaqat adib ijodi, balki, umuman, XX asr ozbek adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. Uning chop etilib, o'quvchilar qo'lga tegish tarixi ham o'ziga xosdir. Sho'ro zamonida o'zbek adabiyotidagi buyuk tarixiy siymolarga bag'ishlangan birorta asarning qismati oson kechmadi. Bunga “Abulfayzxon”, “Muqanna”, “Navoiy”, “Mirzo Ulug'bek”, “Ko'hna dunyo” singari asarlar misoldir. “Yulduzli tunlar” ham bundan mustasno emas. Sho'rolar bunday

asarlar xalqning ko'zini ochadi, isyonkor ruhni charxlaydi, ulug' ota-bobolar orqali buyuk o'tmishga, ma'naviy qudrat an'alariga intilish va sadoqatni kuchaytiradi, deb qo'rqdilar va yanglishmadilar. Bunday asarlar mohiyat e'tibori bilan o'zlikni anglashga chorlashi, xalqni zimdan mustaqillikka tayyorlashi mumkin. "Yulduzli tunlar" ham aslida shunday asar edi. Shu bois, roman bir necha yil davomida ne-ne azob-uqubatlar bilan yozilganiga qaramay, olti-yetti yil chop ctilmay yotdi. Nihoyat bosilib chiqdi (1978), hatto O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi (1981). Lekin ko'p o'tmay asar va yozuvchi boshiga ko'p og'ir kunlar tushdi. Roman matbuotda feodalizmni targ'ib qiluvchi asar sifatida qoralandi. Muallifga millatchi, burjua yozuvchisi deb tuhmat qilindi. Yangi zamon, mustaqillik adibni ham, romanni ham xalqqa qaytardi.

"Yulduzli tunlar" shoh, sarkarda, shoir – benazir inson Zahiriddin Muhammad Boburning yorqin siymosi mahorat bilan aks ettirilgan to'laqonli va sermiqyos badiiy asardir. Bu asargacha yozuvchi, asosan, o'z zamondoshlari va zamonasi muammolariga bag'ishlangan asarlar yozdi. "Yulduzli tunlar"da esa, adib ilk bor tarixiy mavzuga murojaat etdi, buyuk tarixiy shaxs obrazini yaratishga kirishdi. Gap mavzu va qahramonning tarixiylikida emas. Asosiysi, jahon tarixi, xususan, O'rta Osiyo va Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirgan, markazlashgan davlat tuzib, ko'pdan ko'p xalqlarni qirg'inbarot urushlardan saqlab qolgan, murakkab qismatli podshoh, ne-ne jang-u jadallarda mahorat va jasorat ko'rsatgan sarkarda, she'rlaridagi har bir satrda o'z ichki dunyosi, dono porloq qiyofasi porlab turgan buyuk shoir, har bir so'zidan tarix nafasi keluvchi "Boburnoma" muallifi hamda dilbar tabiat siymosi bu darajada haqqoniy, teran gavdalantirilgan roman shu vaqtgacha o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham yaratilmagan edi.

Jahon tarixi badiiy adabiyotida Bobur haqida to'g'ri fikrlardan tashqari bir-biriga zid, ba'zan yanglish, xato, noxolis qarashlar yo'q emas edi. Boburning haqqoniy qiyofasini yaratish, badiiy haqiqat imtiyozlari bilan moziy adolatini tiklash tarix talabi, zamon ehtiyoji va yozuvchining muqaddas burchi edi. Shu ma'noda „Yulduzli tunlar» yozuvchi burchini namoyon etgan yulduzli onlardir. Roman yuqorida e'tirof etilgan jihatlari va buyuk bir tarixiy siymoning qaytadan kashf etilishi bilan o'zbek adabiyotida mustahkam o'rin egalladi. "Yulduzli tunlar"da esa Boburning deyarli butun ongli hayoti yaxlit yaratilgan. Adib roman janrining yuksak talablariga amal qilish bilangina kifoyalanmay, janr tabiatini yanada boyitishga munosib hissa qo'shdi.

Roman Bobur siymosini tarixiy haqiqatga mos, badiiy jihatdan jozibali tasvirlashi bilan e'tiborli. Humoyun og'ir betob bo'lib yotganida Bobur farzandiga shunday deydi: *"Sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin... .*

*...Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch marta aylandi-yu:*

*– E, parvardigor! – deb iltijo qildi. – Menki, Boburmen, agar jon berish mumkin bo'lsa, umr-u jonimni Humoyunga qurbon qildim! Azroyil mening jonimni olsin-u, xudo Humoyunga shifo bersin!"*

Manbalar bu voqea haqiqatan tarixda ro'y berganini tasdiqlaydi. Humoyun ko'p o'tmay tuzaladi. Bobur qazosi shu voqealarga to'g'ri keladi. Roman ham ko'p o'tmay shu tasvirdan so'ng yakun topadi. Yozuvchi bu singari tarixiy faktlarni e'tirof etish bilangina cheklanmaydi, albatta. Taxayyulni erkin qo'yib, ularga badiiylikning jonli suvini ichiradi.

## 2.2. Epik asarlarni o'rganishda jahon standartlari

Xorijdagi adabiyot o'qitish metodikasi biznikidan farq qiladi. Ta'lim standartlari o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni belgilaydi. Ulardagi kompetensiyalar aniq va ob'ektiv belgilanib, spiralsimon shaklda rivojlanib boradigan kichik kompetensiyalarga bo'linadi. Masalan, o'quvchi asar syujetining tarkibiy elementlari, (perspektiva, retrospektiva...), badiiy asardagi stilistik figuralar (metafora, metonimiya kabi), ayrim epizodlarning badiiy matn mazmuniga ta'sirini izohlay olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Xorijda yaratilgan adabiyot darsliklarining deyarli barchasida "Think critically" (tanqidiy tafakkur), "Connect to life" (asarning bugungi kun bilan bog'liqligi) "Extend interpretation" (Keng ko'lamli talqin) kabi qismlar mavjud bo'lib, bularning barchasi o'quvchining tafakkuri rivojiga xizmat qiladigan savol va topshiriqlardan iborat bo'ladi<sup>20</sup>. Ularda badiiy matn bilan ishlashning muayyan bosqichlari (asarni o'qishdan oldin, o'qish davomida va o'qishdan keyin) mavjud<sup>21</sup>. Har bir bosqichning o'z maqsadi va uslublari bor. O'qishdan oldingi mashqlar o'quvchini asarga qiziqtirish, asar mazmunini tushunishga tayyorlashga xizmat qilsa, o'qish davomida bajariladigan mashqlar bevosita badiiy matnni tushunish – tahlil qilishga qaratiladi. Bunda asar tahlili faqat syujetni qayta hikoyalash bilan cheklanmaydi. O'qishdan keyingi mashqlar esa asar ustida chuqur mushohada yuritish, adabiyotning, san'atning boshqa turlari, boshqa fanlar va o'quvchi hayoti bilan aloqasini ta'minlash, o'quvchida og'zaki va yozma nutqni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratiladi. Masalan, Angliyadagi 6-sinf darsligida

---

<sup>20</sup> Arthur N.Applebee, Abdrea B. Bermuder etc. World Literature/ Evanston, Illinois, 2008.

<sup>21</sup> Мирзаева З. Адабиёт фанларини ўқитишда интегратив ёндашув муаммолари / Тил ва адабиёт таълимига бағишланган республика анжумани материаллари, Тошкент, 2016



“Yozning bir kuni” (R.Bredberi) asarini o‘qishdan oldingi savol va topshiriqlar kuyidagi mazmunda berilgan: “O‘zigiz uchun qadrdon bo‘lgan dunyo tasvirin chizing. Siz uchun muhim bo‘lgan narsalar bir kunda yo‘qolib qolsa, o‘zingizni qanday his qilgan bo‘lardingiz?”

O‘qish davomida: “Bolalar nega bosh qahramonni yakka-latib qo‘yishd i”?

O‘qishdan keyin: “Asar voqyealari Venera sayyorasida kechadi. yer va Venera sayyoralariing o‘xshash va farqli jihatlari nimada? Voqyealar yer sayyorasida kechishi mumkinmidi?”

Adabiyot darsliklarida “asar haqida” degan bo‘lim berilmaydi, balki savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchining asarga munosabati shakllantiriladi.

Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan integratsiyalashuv, globallashuv jarayonlari barcha sohalar qatorida ta'lim yo'nalishiga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Ҳинд методист олимларидан бири Аниша Мунавварнинг таъкидлашича, адабиёт фанларини икки босқичли тизимда ўқитиш мақсадга мувофиқдир. Булар *Pre-teaching project* ва *Post-teaching project*<sup>22</sup>.

*Pre-teaching project* (darsni tashkil etish loyihasi) o‘qituvchining adabiyot darslarini tashkil etish, o‘quvchini badiiy asarlar mutolaasiga qiziqтира olish mahorati masalalari asosiga quriladi. Dastlabki o‘qitish loyihasining muhim shakllaridan biri – badiiy matnga *geografik aspektda yondashuv loyihasidan* iboratdir.

Badiiy matnni chuqur tushunish, uning ichki hayotiga yashiringan

---

<sup>22</sup> A. G. Mujawar. Creative Techniques of Teaching Literature // Language in India. ISSN 1930-2940 Vol. 13:7 July 2013.

ayrim ma'no qatlamlarini idrok etishda geografik yondashuv usulidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Aytaylik, talabalarga XX asr o'zbek adabiyotidan dars beradigan o'qituvchi Cho'lpon ijodini o'rgatish jarayonida u tavallud topgan shahar, tuman yoki qishloq (masalan, Andijonning Qatorterak mahallasi), ushbu shahar yoki qishloqqa chegaradosh hududlar, o'sha joyning geografik joylashuvi, bugungi xolati, ijodkor yashagan hudud bilan bog'liq konstruktiv o'zgarishlar, muayyan manzilning badiiy asardagi tasviri va yana shunga o'xshash detallar vositasida tushuntiradi.

Natijada o'quvchining badiiy asardagi voqelikni real epizodlarda ko'rish va tasavvur qilish imkoni yaratiladi. Shu o'rinda o'qituvchi talabalarning o'zlaridan ham turli xil, xususan, ijodkor yashab o'tgan joy nomiga aloqador ma'lumotlar, umumgeorafikxaritalarni olib kelish va muayyanjoy tasvirini daftarlariga qayd qilish vazifasini ham berishi mumkin. Badiiy matnni bu kabi geografik detallar vositasida o'rganish asar ichki xayotiga yashiringan xos tushunchalarni ham idrok etish imkoniyatini kengaytiradi.

Bizning nazarimizda, badiiy matnni geografik aspektda o'rganish vositasida muayyan hudud iqlimi, tabiati va uning muallif ruhiyatiga ta'siri kabi masalalarni yanada chuqurroq idrok etish uchun ham zamin yaratiladi. Zotan, muallif va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammolari talqini, matndagi tabiat tasvirining ijodkor ruhiyatidagi in'ikosi masalasi zamonaviy tanqidchilikning yetakchi tamoyillariga aylanib ulgurgan<sup>23</sup>.

Adabiyot darslarida mashhur tanqidchilar, shoir va yozuvchilar, aktyor hamda aktrisalarning suhbatlaridan foydalanish ham muayyan natijalar

---

<sup>23</sup> Elaine Showalter: Teaching Literature. Blackwell Publishing Ltd, 2003.

bera oladi. Bunday usul talabalarda plyuralistik tafakkur imkoniyatlarini kengaytirish, badiiy matnni turli aspektlarda tushunish imkoniyatlarini yaratadi. Qolaversa, suhbat metodi badiiy matnni chuqurroq tushunishga yordam berib, mutolaaga rag'bat uyg'otadi.

Xulosa qilish mumkinki, adabiyot o'qitishga integrativ yondashuv yosh avlodning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Bugun o'quvchilar, yoshlar adabiyotni faqat oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun bo'ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtai nazaridan emas, balki o'z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma'naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o'rganishiga erishishlari zarur. Chunki badiiy adabiyot odam ko'nglini tarbiyalaydi. Bugungi murakkab globallashuv sharoitida ma'naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan o'zanini yo'qotgan selday oqib kelayotgan zararli g'oyalarga qarshi faqat milliy badiiy adabiyotgina milliy immunitet hosil qila olishi mumkin. Chunki adabiyot ko'ngildan paydo bo'lib, ko'ngillarga singadi.

O'zbek adabiyoti ta'limida xalqaro standartlardan milliy strategik maqsadlarimizga moslarini tanlab, ularni izchil joriy qilish vaqti keldi. Umid qilamizki, soha mutaxassislari bir maqsad yo'lida birlashib, yaqin kunlarda milliy metodika taraqqiyotini eng yuksak cho'qqilarga olib chiqadi.



### **III bob. Romanni o'rganish bo'yicha interfaol usullarni qo'llashning nazariy asoslari**

Innavatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda mustaqil ishlash ko'nikma va malakasi rivojlanadi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba–sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan.

Ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- darsni o'qitish jarayonida har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishda erkin muloqatga kirishishini rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni bilim oluvchining faolligini oshirishga va dars jarayonida ham faollikni oshiruvchi metod va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muoammolarga o'z munosabatlarini bildirishga intilishlarini tarbiyalab, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga

imkoniyat yaratadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Interfaol darslarda o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadiga yo'naltiradi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchining dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlashi, ijod va izlanishga jalb etilishi, ta'lim jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlari doimiylik ta'minlanishi, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatining doimiy ravishda tashkil etilishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizini o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishi tashkil etiladi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyoji, qiziqishidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan bo'ladi.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish mobaynida o'quv vositalarini dars mavzusiga qarab tanlaydi va asosiy e'tiborni qo'llaniladigan metodlar va o'quv vositalariga qaratadi. O'qituvchi har bir mavzuga mos yangi usullar va texnik vositalardan o'z o'rnida va unumli foydalana olsa, shundagina ko'zlagan maqsadga erisha oladi. Bu esa o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, berilgan aniq mavzu bo'yicha atroflicha fikrlashga va ijodiy faol bo'lishga yo'naltiradi. Hozirgi kunda keng qo'llaniladigan usullar –“Klaster”,“Aqliy hujum”,“Debat”, Muammoli vaziyat” kabilardan

foydalanib, o'qituvchilar darsda samarali natijalarga erishmoqda. Dars davomida mavzu yuzasidan kelib chiqqan muammolarni innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali oson yechimini topish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning darsdagi faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishi, har bir dars puxta rejalashtirilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi lozim. O'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarni o'rganilgan mavzu yuzasidan fikr bildirishga undashi, taklif va mulohazalarni, iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini qo'llab quvvatlashi, buning uchun sharoit va imkoniyat yaratib berishi lozim.

Ona tili va adabiyot darslarida ham zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. "Nihol o'stiramiz" usuli orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumkin. Bunda dars boshida o'quvchilarini guruhlariga bo'lib olamiz. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida har bir guruhga 1 donadan oq qog'oz beriladi. O'quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi o'quvchilar oq qog'ozga nihol chizadi va niholni parvarishlab o'stiradi. O'quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Har bir olgan ma'lumot bilan niholda bitta shox paydo bo'ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o'qituvchiga o'quvchilar yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi. Bunda o'quvchilarning tasviriy san'at faniga bo'lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashini rivojlantirib boradi. Shoir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik menatsevarlik qobiliyatlari shakllanib boradi. O'quvchilarning tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati ortib boradi.

Ta'lim-tarbiya bir joyda to'xtab qolmaydi, u doimiy takomillashuv jarayonida. Shunday ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishning yangi usullarini ishlab chiqib, o'quv jarayoniga tavsiya etish dolzarb masalalardan biridir.

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy, o'qituvchi tomonidan bayon qilish, talabalarga tayyor bilimlarni berish usulidan voz kechib talabalarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi talabalar bilish faoliyatining boshqaruvchisi, maslahatchi, yakuniy natijaga yo'llovchi shaxs vazifasini bajaradi. Pedagogik texnologiyaning samaradorligi yana shundan iboratki, unda turli o'qituvchilar muayyan fan (mutaxassislik bo'yicha) bir xil (deyarli bir xil) yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa barcha o'quv yurtlariga yagona Davlat ta'lim standarti talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz, o'zbekistonlik pedagoglar, uchun nihoyatda muhimdir.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston hukumati, shaxsan muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq, ayniqsa, so'nggi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalalari va ta'lim tizimini takomillashtirib, uni jahon andozalariga muvofiqlashtirish bo'yicha ibratli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Shuni ta'kidlash lozimki, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan barcha o'quv yurtlarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq maqsad sari samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1997 yil aprel-iyun oylarida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy seminarlar dasturida pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish masalasi o'z aksini



topgan. O'sha yili avgust oyida «Muammolar» institutida «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» bo'yicha jadallashtirilgan kurs tashkil qilinib, unda professor B. L. Farberman qiziqarli ma'ruzalar o'qidi. U ta'kidlaganidek: «Ko'p bosqichli ta'lim tizimi, yangi standart va o'quv dasturlari joriy etilayotgan hozirgi davrda o'qitishni eskicha uslub bilan olib borishga yo'l qo'ymaslik kerak».

Xo'sh, ilg'or pedagogik texnologiya o'zi nima, uning an'anaviy o'qitish usulidan qanday afzalliklari bor?

Ilg'or ijodkor pedagoglar tomonidan an'anaviy ta'lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, samarali uslublarini takomillashtirish, o'quvchining aqliy mehnatini amalga oshirish usullarini izlashlari natijasida o'ziga xos ta'lim usuli vositalari yaratildiki, buning oqibatida yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi.

Ana shu izlanishlar zamirida yangi pedagogik texnologiyaga asos solgan pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi. Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo'nalish berish ta'limni amalga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligini ta'minlagan holda kutilishi zarur natijani olishni belgilaydi.

O'qitishning mavjud uslublari ko'p hollarda o'quv jarayonini tashkil etish va olib borishga oid tavsiyalar majmuidan iborat bo'lsa, pedagogik texnologiya asosida interfaol usullardan foydalanish bundan farqli o'laroq, birinchidan, yakuniy natijani kafolatlaydi, ikkinchidan esa bo'lajak o'quv jarayonini ham loyihalaydi. «Pedagogik texnologiya o'quv maqsadlarning aniq belgilanishi, yakuniy natijaning kafolatlanishi, o'quv jarayoni takrorlanuvchanligining ta'minlashi va tezkor qaytuvchan aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanadi».

O'quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarning eng muhimi, yetakchisi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik jarayon o'zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat'iy nazar, u, eng avvalo, maqsadni aniqlashdan boshlanadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar ham o'quvchining barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga harakat qilishlari muhim ahamiyatga ega.

Innovatsiya orqali o'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari optimallashtiradi. Bunda har ikkala shaxs ham faol ishtirokchiga aylanishi ko'zda tutiladi. Ta'lim jarayonining samaradorligi esa ushbu o'zaro munosabatlarning qanday bo'lishiga bog'liq, albatta.

Ta'lim jarayonida interaktiv usullardan foydalanish mantig'ida ikki xil g'oya yotadi:

a) o'quv jarayonini to'la-to'kis o'rgatuvchi mashinalarga o'tkazib, unda asosiy rol o'ynaydigan o'qituvchini to'la ozod qilish;

b) uning faoliyatini tashkil etish va maslahat berish funksiyalari bilan chegaralash.

Shuning uchun ham o'qitish mazmuni va jarayoni bo'yicha mutaxassislar guruhi tomonidan ishonchli bo'lgan o'qitish tizimlarini rejalash, yaratish va ularni qo'llashga tayyorlangan sharoitda, hatto «o'rtacha» o'qituvchi ham yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Ta'limning amalga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchi shaxsi ustivorligini ta'minlash;

- ta'lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga

oshirish;

- ta'lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;

- ta'lim mazmunini ta'minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

-Uzluksiz malaka oshirish;

-Muntazam tahlil qilib borish;

-Loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash;

-Tanlangan usublarning maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish(ta'lim metodlari);

-Olinishi zarur bo'lgan natijani oldindan taxmin qilish(kafolatlangan maqsadga erishish);

-Ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash.

Yangi pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, o'quv jarayoniga bir qator yangi elementlarni olib kiradi va bular quyidagilar:

-O'quv birliklarini(mezonlar) belgilash;

-Diagnostik tahlil;

- Tuzatish kiritish;

-Qayta ishlash(to'ldirish);

-Kutilishi lozim bo'lgan(kafolatlangan) natijani olish;

-Reyting(taqqoslash).

Yuqoridagi tamoyillar va elementlarga asoslangan holda va yangi pedagogik texnologiyalarni ta'limga joriy etish, ayniqsa rivojlangan

davlatlardagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ta'limiy pedagogik texnologiya tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari – pedagog va o'quvchi o'rtasida o'quv mehnati rejasini ishlab chiqish: ya'ni pedagog bo'lim yoki bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada o'quvchi faoliyat o'z aksini topmog'i kerak.

2. Fanning ichki bog'lanishi yoki fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish. Ma'lumki, har bir o'rganiladigan kichik yoki yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlariga tayanadi. Demak o'quvchini yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga yetarli bo'lmasa «oraliq tayyorgarlik» olib borish va shundan keyingina o'quvchini bilimlarini o'rganishning navbatdagi bosqichiga olib kirish lozim. Bunday ishlash yangi pedagogik texnologiyaning asosiy elementlaridan biri diaqnoz(tashhis) hisoblanib, o'quvchilarning yangi bilimlarini o'zlashtirish qanchalik darajada tayyor ekanliklarini aniqlashdan iborat. Hozirgi davrda ta'lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o'qitish metodlaridan voz kechib, zamon talablariga javob beradigan yangi yo'nalishlarni izlashni taqozo etmoqda.

### 3.1. Romanni o'rganishda zamonaviy interfaol usullar

Asarni o'rganishda zamonaviy interfaol usullardan foydalansak hozirgi zamon talabiga javob bera olgan bo'lamiz. Adib hayoti va ijodi, asar tahlili uchun metodikalardan foydalanamiz. Masalan, "Zinama-zina" texnologiyasi, bunda o'quvchilarni bilimini mustahkamlash uchun savollar beriladi va savolga javob bergan o'quvchilarni zinama-zina ko'tarilishi mumkin shu bilan o'quvchilarni baholaymiz. "Aqliy hujum" metodi eas tezkor savol-javob orqali o'quvchilarni qanchalik ziyrak va zukkoligini bilib olishimiz mumkin. "Rolli o'yin" metodi bunda o'quvchilar asar qahramonlarini tasavvur qilib, rol ijro etib berishlari kerak bo'ladi. Shu bilan o'quvchilarni qobilyatlarni yuzaga chiqara olamiz. "FSMU" metodi orqali o'rtaga fikr tashlanadi va o'quvchilar fikr yechimini, sababini, misolini, umumlashtirish so'raladi. Bu metod orqali o'quvchilarni ko'proq fikrlashga yordam beradi. "Davra suhbatlari" metodi bunda o'quvchilar aylana bo'lib o'tirib olishadi, so'ng mavzu yuzasida suhbat qurishadi. Mulohaza qilib, savollarga javob berishadi. "VIDEOTOPSHIRIQ" metodi orqali oldin mavzu videa orqali tomasha qildiramiz, keyinchalik shu mavzuga doir topshiriqlarni o'quvchilarga berib, topshiriqqa javoblar olamiz. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchi shaxsiga mos metodlarni qo'llay

olmasa, o'quvchi shaxsini o'zgartirish uchun sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi

Ayni paytda o'qituvchi oldida mas'uliyatli va mashaqqatli vazifa – o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turibdi.

Ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan.

O'zbekistonning to'la mustaqil bo'lishida fuqarolarning ruhiy va fikriy mustaqilligi muhim kasb etadi. Shuning uchun ham jamiyat a'zolarini, ayniqsa yoshlarni mustaqil fikrlay olishga o'rgatish bugungi kunda o'ta dolzarb masala bo'lib turibti. Yoshlarni tashabbuskor kishilar sifatida tarbiyalash, ularni nostandart fikrlashga odatlantirishda ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi.

Hozirgi paytda milliy pedagogikaning asosiy diqqati tarbiyalanuvchi shaxs ma'naviyatini kamol toptirishga, uning o'ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, ijodkor, tashabbuskor, mas'uliyatni zimmasiga olishdan cho'chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratilgan.

Insonning tuyg'ular olami, hissiyotlar dunyosi erkin bo'lmas ekan, o'qituvchi yoki o'zga kishining tazyiqlaridan, zo'ravonliklaridan hayiqib turar ekan, u hech qachon mustaqil fikr aytolmaydi.

Hissiyotlariga daxl qilinmagan odamdan erkin fikrlay oladi, o'z fikrini asoslay biladi, uni himoya qila oladi.

Erkin fikrlashga o'rgatish zarurati, qolaversa mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, xalq ruhiga singib qolgan mute'lik, jur'atsizlik kabi illatlarni tugatish, shuningdek serandishalik, kattalarga ko'r-ko'rona itoat qilish, sabr-toqatlilik kabi fazilatlarni ongidan chiqarish lozim edi. Mustaqillik sharofati ila erkinlik, Vatan, millat, davlat oldida mas'ullik, ma'naviyatga intilish, shaxsiy fikrga ega bo'lish singari bobokalonlarimizdan o'tib kelayotgan fazilatlar qayta jumbushga kela boshladi.

Bu holatni ta'lim-tarbiyada bevosita aloqador muassasalar, shaxslar hisobga olib, tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartira boshladilar va ta'lim jarayonining pirovard maqsadi – erkin fikrlash va ma'naviyat ekanini tushunib yetdilar. Eng muhimi, mustaqil fikrlaydigan o'quvchi shunday sifatga ega bo'lmagan sinfdoshidan farqli o'laroq barcha narsani bilishga qiziqdi, ta'lim jarayonidan zavqlandi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi erkin va mustaqil fikrlashning usul va yo'llarini egallaganda o'quv materialini tez idrok etadi, puxta o'zlashtiradi. Dars mashg'uloti bilan qanoatlanmay qoladi. Sinfdoshining fikrlashiga xalal beruvchi nojo'ya xatti-harakatlaridan ranjiydi. Ayni paytda fikrlashga o'rganmagan o'quvchi fikrlaydigan sinfdoshi oldida ojizligidan iymanadi, iztirob chekadi, turli salohiyatdagi o'quvchilardan tashkil topgan guruhda ishlashdan esa o'qituvchi tez toliqadi.

Bunday holatlar esa sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, qobiliyatiga qarab guruhlashga taqozo qiladi.


O'quvchilar ishining yuqori samaradorligini asosiy sharti,

tashabbuskorlik va faolligini vujudga keltirish ular faoliyatlarini vujudga keltirish ular faoliyatlarini baholashdan iboratdir.

Hozirgi vaqtda bo'yicha ulgurmovchanlik uch mezon bilan aniqlanadi:

- o'zlashtirib olinganlik darajasi va amaliy bilimlarni amalga oshirish;
- programmada belgilangan mashqlarni texnik nuqtayi nazaridan harakat faoliyatlarini bajarish sifati.

### "ZINAMA-ZINA" TEXNOLOGIYASI



**QOIDASI:** Ushbu texnologiyada o'rtaga qo'yilgan masala yechimi ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak.

**Savollar:**

1. Pirmqul Qodirov qachon va qayerda dunyoga kelgan?



2. Pirimqul Qodirov qayerga o'qishga kiradi?
3. Pirimqul Qodirov qayerda ishlagan?
4. Pirimqul Qodirov asarlarini sanab bering?
5. "Yulduzli tunlar" dostoni kim haqida edi?
6. "Yulduzli tunlar" dostoni yozishga sababchi bo'lgan asar qaysi?
7. "Yulduzli tunlar" dostonida bosh qahramon?
8. "Yuzduzli tunlar" dostonida qahramonlarni aytib bering?
9. Umar Shayx Mirzo qanday o'ladi?

**"Aqliy hujum" metodi**

## **"Rolli O'yin"**

### **Metodi**

**"Rolli o'yin" metodining afzallik tomonlari:**

- ✓ O'quv jaroyonida o'quvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi.

- ✓ O'quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.
- ✓ Nazoriy bilimlarni amalyotda qo'llay olishni o'rgatadi.
- ✓ O'quvchilarga berilgan vaziyatni tahlil qilishda malakasi shakllanadi.

"Rolli o'yin" metodining kamchilik tomonlari:

- ✓ Ko'p vaqt talab etadi.
- ✓ O'quvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi.
- ✓ O'quvchilarni o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin.
- ✓ Barcha o'quvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

# FSMU

## METODI

F-fikrni bayon etish

S-fikr bayoniga sabab ko'rsatish

M-ko'rsatilgan sababini isbotlash misolini (dalil) keltirish.

U-fikrlarni umumlashtirish.

## "Davra suhbatlari"

## METODI

Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan

o'quvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan metodi.

## "Videotopishmoq" metodi

- Yangi bilimlari bayon etishda, juda sekin kechadigan jarayonlar bilan tanishish, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan, shuningdek, tez sodir bo'ladigan jarayonlar, hodisalarni kuzatish imkonini beruvchi metoddir.

### 3.2. Ishning amaliyotga tatbiqi

*Roman (franz. roman)* - nasriy asar janri. Uning dastlabki lug'aviy ma'nosi roman tillarida (o'rta asrlarda roman tillarida yozilgan har qanday asarni anglatadi) yaratilgan adabiy asardir. Keyinchalik bu atama o'zining lug'aviy ma'nosidan uzoqlashib, keng qamrovli nasriy asar nomini anglata boshlagan. Roman - inson hayotini jamiyat bilan bog'lab, keng tasvirlovchi yirik epik janr hisoblanadi. U boshqa nasriy janrlar - qissa, hikoyalardan o'zida ko'plab personajlarning taqdirini aks ettirishi, katta miqyosdagi

voqea-hodisalarni tasvirlashi bilan farq qiladi.

Roman mavzu va shakl jihatdan xilma-xil. Avvalgi darslarimizda bu jarirning mavzu jihatdan bir necha xil ekanligi haqida suhbatlashganmiz. (tarixiy roman-A Qodiriy, «O'tkan kunlan»; O. Yoqubov, «Ulug'bek xazinasi»; harbiy roman-Oybek, «Quyosh qoraymas»; Shuhrat-«Shinelli yillar»; zamonaviy roman-P. Qodirov, «O1mos kamar»; O. Yoqubov-«Diyonat»; sarguzasht va fantastik roman-X. To'xtaboyev, «Sariq devni minib»; ijtimoiy-falsafiy roman-A Muxtor, «Davr mening taqdirimda» kabi.) Ushbu janrni to'liq idrok qilishda uning shakllarini bilish ham juda muhimdir. Chunki shunday romanlar bitiladiki, romannavis ko'ngliga tukkan, yoritishi kerak bo'lgan voqealar bir kitobga sig'maydi. Muallif uni ikki, uch, to'rt va hatto undan ortiq kitob holida yaratishi mumkin. Shunga ko'ra roman o'zining hajmi va shakliga ko'ra dilogiya, trilogiya, tetralogiya, romanlar turkumi ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. Demak, romanning voqealar ko'lami uning necha kitobdan iborat bo'lishini belgilaydi.

Umumiy mazmuni, g'oyasi, asosiy qahramonlari, voqealar tizimining o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi bilan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ikki kitobdan iborat ikki mustaqil roman-*roman-dilogiya* deb ataladi va nisbatan katta voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunda asardagi bosh qahramonlar taqdiri tasviri har ikkala kitobda ham davom etadi. Masalan, P. Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni», H. G'ulomning «Mash'al», M. Ismoilning «Farg'ona tong otguncha», X. To'xtaboyevning «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» romanlarini o'zbek adabiyotida yaratilgan roman-dilogiyalarning namunalari desa bo'ladi.

*Roman-trilogiya* haqida ham roman-dilogiyaga nisbatan qo'llangan ta'rif mos keladi. Shunday ekan, trilogiya - uch kitobdan iborat roman bo'lib,

ijtimoiy hayotning katta bir davrini o'z ichiga oladi. Bunday asar undagi qahramonlar hayotini, davrning juda katta qismini voqealar fonida ko'rsatishga qodir bo'la di. Masalan, Siz kuni kecha o'rgangan Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi uch kitobdan iborat romandir. Romanning birinchi kitobi «Qirq besh kun» deb atalib, unda xalqimizning urushgacha bo'lgan hayoti, uning mehnat jasorati (Katta Farg'ona kanali qurilishini eslang) qalamga olingan. «Hijron kunlarida» deb ataladigan ikkinchi kitob esa birinchi kitob qahramonlarining urushda va front ortidagi qahramonliklari haqida hikoya qiladi. Asarning uchinchi kitobi-«Ufq bo'sag'asida» esa ularning urushdan so'nggi taqdiri tasvirlangan.

Ko'ryapsizki, ushbu roman-trilogiyada juda katta davr qamrab olingan va bu uch mustaqil kitob qahramonlarning g'oyat murakkab, baxtli va mashaqqatli taqdirini batafsil yoritgan.

Jahon adabiyotida L. N. Tolstoy, S. T. Aksakov, Xalqaro Nobel mukofoti laureatlari: ingliz yozuvchisi Jon Golsuorsining «Forsaytlar haqida qo'shiq», arab yozuvchisi Najib Mahftizning «Xan al-Xalili», Vasiliy Yanning «Chingizxon», «Botu», «So'nggi dengizgacha», o'zbek adibi S.Ahmadning «Ufq» kabi trilogiyalarini uch kitobdan iborat roman-trilogiyalarning mukammal namunasi, desabo'ladi.

*Roman-tetralogiyalar* to'rt kitobdan iborat roman shakli bo'lib, jahon romanchilik tajribasida uchraydi. (Masalan, rus adibi V. Katayevning «Qora dengiz to'lqinlari» tetralogiyasi.)

O'zbek adabiyotida O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning to'rt kitobdan iborat «Shaytanat» romani yaratilgan,

To'rtidan ortiq kitobdan iborat roman shakllarini *romanlar turkumi* deb atash rasm bo'lgan. Romanchilik tajribasida bunday asarlar turkumiga

fransuz adiblari Romen Rollanning o'n jildlik «Jan Kristof», Roje Marten dyu Garning sakkiz jildlik «Tibo oilasi» romanlarini misol qilib keltirish mumkin. Ahamiyatlisi shundaki, har ikkala adib ham ushbu asarlari uchun Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lganlar.

Romanchilik deganda *epopeya* degan tushuncha ham ko'p ishlatiladi. Uning roman shakllari (dilogiya, trilogiya, tetralogiya, romanlar turkumi)ga faqat bilvosita aloqasi bor, ya'ni unda asarning necha kitobdan iborat bo'lishi emas, balki qanchalik ko'p va katta voqea-hodisalarning qamrab olinishi muhim. Masalan, asar qahramonlarining bir necha avlodi taqdiri yoritilgan Oybekning «Navoiy», S. Ayniyning «Qullar» kabi *roman-epopeyasi* shular jumlasidandir.

## Xulosa

Bu asar mazmun e'tibori bilan qomusiydir unda Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, O'rta Sharq va Hindiston o'lkalarining tarixi, etnografiyasi, adabiyoti va etnik qatlamlari tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosi tili adabiyotiga oid qimmatli va ishonarli ma'lumotlar jamlangan. Bu shoh asarda adib Boburning yuksak badiiy mahorati, sodda va tushunarli til uslubi, uning o'ziga xos betakror go'zalligi o'z aksini topgan. Asarning bosh qahramoni Zahiriddin Muhammad Boburning o'zi. Uning hatti-harakati, amalga oshirgan ishlari, maqsad va intilishlari, ularni amalga oshirishdagi qat'iyat va mahorati asar qahramonini ideal qahramon darajasiga ko'taradi.

Biz ushbu BMI da Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining o'zbek adabiyotini rivojlanishida tutgan o'rnini aniqladik va uning bizga qoldirgan adabiy merosini birma-bir sanab chiqib, barcha asarlarining qaysi sohaga ba'g'ishlanganligini hamda ularning o'zbek va jahon adabiyoti rivojida qay darajada ilmiy-adabiy qimmatga ega ekanligini o'rgandik va ilmiy-nazariy xulosalar chiqardik. Bobur mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular ummonday cheksiz. Bu ummonda o'nlab, yuzlab adabiy kemalar suzishi mumkin. «Yulduzli tunlar» ana shu majoziy kemalardan biri tarzida yuzaga keldi.

Professor Q. Yo'ldoshev haqli ravishda ta'kidlaganidek, «Maktab adabiyoti ta'lim berish vositasi emas, balki tarbiyalash vositasidir. Aslida adabiyot tarixiga dahldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy ma'lumotlar tizimini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarni o'z tabiatiga singdira bilgan, sirdan qaraganda, nafaolday tuyuladigan o'quvchilar jamiyatimiz uchun

ko'proq zarurdir... Badiiy adabiyot go'zal dunyo ichida go'zal ruhiy dunyo yaratishdir»<sup>24</sup>. Shu nuqtayi nazardan adabiyot fanining asosiy maqsadi ham o'quvchilar ong-u shuurida ma'anviy qadriyatlar sadoqat, vatanga muhabbat, ezgulikka mehr uyg'otishdan iboratdir. biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda adabiyot darsliklarining kata qismini egallagan turli davrlarda yaratilgan hikoyalarning badiiy xususiyatlarini o'quvchiga o'rgatishning usul va vositalari haqida so'z yuritdik. Mazkur izlanishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Adabiyot fanidan dastur va darsliklarni o'rganish jarayonida ularning o'quvchilar yosh xususiyatlariga nechog'lik mos kelishini aniqladik. Hikoyalarni o'rganish quyi sinflardan boshlanib, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining yuqori bosqichlariga qadar o'rgatilishi hamda mazkur hikoyalarning g'oyaviy jihatlari ham oddiydan murakkabga tomon o'sib borishini kuzatdik.

2. Akademik litseylarda o'quvchilarga mutolaa uchun tavsiya etilgan hikoyalarning salmog'ini o'rganish jarayonida ularning o'zbek adabiyoti tutgan o'rni va badiiy qimmatini ham asoslashga harakat qildik.

3. O'quvchilarning badiiy tahlil malakalarini shakllantirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni tahlil qildik.

4. Hikoyalarning badiiy xususiyatlarini o'rganishga doir ilmiy-metodik asarlarni o'rganib, ulardagi fikrlarni umumlashtirdik.

5. Hikoyalar badiiyatini o'rgatishda xorij tajribasini tahlil qildik va bu borada rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimidagi muhim jihatlarni

---

<sup>24</sup> .Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O'qituvchi, 1996.-30 -34- b.



alohida taqqosladik.

6. Adabiy ta'limda integratsiyaning roli va o'rnini dalillar vositasida isbotlashga harakat qildik. Pedagogik amaliyot davomida nazariy bilimlarimizni amaliyotga tatbiq qilib, akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun adabiyot darslarida bevosita Shukur Xolmirzayevning "Qariya", Said Ahmadning "Qorako'z Majnun", Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" singari hikoyalari asosida dars mashg'ulotlari olib bordik.

Akademik litseylarda epik asarlar badiiyatini o'rganishga doir bir soatlik ochiq dars ishlanmasi tayyorladik.

**Ilovalar** ( tarqatma materiallar, testlar, ochiq dars ishlanmalaridan namunalari).

**Mavzu: Bobur va Humoyun (Pirimqul Qodirov)**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** «Bobur va Humoyun» hikoyasi bilan tanishtirish, ravon va ifodali o'qishga, matn ustida ishlashga o'rgatish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, buyuk ajdodlarimizdan o'rnak olish, madaniy ma'naviy meroslarimizni o'rganish, qadrlashni o'rgatish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Kasblarni sevishga o'rgatish

**Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarni ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog'lanishli nutqini rivojlantirish.

**Darsning uslubi:** savol-javob, tushuntirish, ko'rsatmalilik, muammoli

vaziyatlar hosil qilish,.

**Darsning jihozi:** darslik, ko'rgazma, tarqatma materiallar, sahna, testlar, boshqotirmalar, rasmlar. slaydlar.

**Darsning borishi.**

№	Darsning bosqichi	Vahti
1	Tashkiliy qism.	2 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash.	14 daqiqa
3	Yangi mavzuni bayoni	18 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash.	8 daqiqa
5	Dars yakuni	3 daqiqa

**Tashkiliy davr:**

**Tashkiliy qism. Salomlashish.** O'quvchilarga yaxshi kayfiyat tilash va darsning «Oltin qoida»larini eslatib o'tish.

1. Intizom.
2. Ahillik.
3. O'zaro hurmat.
4. Faollik.
5. Aniqlik.
6. «O'ng qo'l» qoidasi.

**Ma'naviyat daqiqasi.**

1. Bolalar biz qanday davlatda yashaymiz?

Mustaqil O'zbekistonda.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti kim?

Sh. M. Mirziyoyev.

3. O`zbekiston qachon mustaqil bo`lgan?

1991 yil 31 avgustda mustaqil deb e'lon qilingan.

4. Bu yil qanday yil deb e'lon qilingan?

Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili

5. Vatan nima?

Vatan bu biz tug`ilib o`sgan joy, makondir.

6. Sizning Vatanningiz qayer?

O`zbekiston.

Bolalar darsimiz – o`qish.

**Shiorimiz: A'lo o`qish – bizning burchimiz.**

**Maqsadimiz: Vatanga loyiq farzand bo`lish.**

-O'qituvchi: Aziz bolajonlar, biz I.A.Karimovning "Yuksak maniaviyat - yengilmas kuch" asari bilan tanishib kelmoqdamiz. Biz odatda maniaviyat haqida uning ma`no-mazmunini, hayotimizdagi o`rni va ahamiyati haqida ko'p gapiramiz. Lekin negadir aksariyat hollarda ko'pchilik "Maniaviyat o'zi nima?", degan savolga aniq va lo'nda javob berishga qiynaladi.

"Ma'naviyat so`zi – arabcha ma`no fe`lidan olingan bo`lib, "ma`ni" va "ma'no" degan ma'noni anglatadi. Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan kuch.

Hozir sizlar bilan birgalikda « **Sirli raqamlar o`yinini**» o`ynaymiz. Buning uchun sizlarni 3 ta guruhga ajrataman va sizlarni bahor gullari bo`lmish «Boychechak», «Binafsha», «Lolaqizg`aldoq» nomlari bilan atayman. Har bir guruhga raqamlar aytaman. Siz bu raqamlarni biz uchun

qanday tarixiy ahamiyatga ega ekanligini aytib berasiz.

Navbatchi axboroti:

## **2. Otilgan mavzuni so`rash**

**1. Hamkorlikda hikoya qilish mashqidan foydalanish orqali so`raladi.**

Buning uchun o`quvchilar belgilangan qismgacha hikoyani ifodali o`qib , og`zaki bayon qiladilar.

**2. Tez top o`yini o`tkaziladi (Savollar o`tilgan mavzu yuzasidan bo`lib « Hikmat» daraxtiga ilib qo`yiladi.**

1.Ota-onani hurmatlash haqida qaysi asarda yozilgan ?

( Qobusnomada )

2. «Qobusnoma» asarining muallifi kim? ( Kaykovus)

3. «Qobusnoma» qaysi asrda yozilgan? (11-asrda )

4.Bir kishi Rasulullohdan - Men yaxshiligimni kimga qilsam bo`ladi ? deb 4-bor so`raganlarida Rasululloh qanday javob qildilar? ( otangga va boshqa yaqin bo`lgan qarindoshlaringga deb javob qildilar.)

5.Maqolni davom ettiring. Jannat onalar ... (oyog`i ostidadir.)

6.To`maris kim? (Massagetlar malikasi va fors podshohi.)

7. Boshqa ota – ona qaramog`iga farzandlikka olib tarbiya qilish ( Asrandi )

8. Farzandning ota-ona onalari oldidagi burchlari qaysi qonunda ko`rsatilgan (O`z. Res.kons. 64-modda )

**3. Boychechak guruhi ota-onalar haqida hikmatli so`zlar va maqollar aytadilar.**

**Davomini top o`yini** Binafsha guruhiga tarqatmalar tarqatiladi.

1. Ota – onang ...( Davlating)
2. Ota –bola bir ... (bog`)
- Biri - ... (gul ), biri – Bog`bon
- 3.Bola aziz, odobi undan ... (aziz)
4. Otalar so`zi, aqlning ... ( ko`zi.)
5. Ota rozi, xudo rozi.
6. Osmondagi oftobday .....

**Tarmoqlash texnologiyasi** “Lolaqizg`aldoq” guruhiga topshiriladi.

1.Oqituvchi: -Ektranda nimani ko`ryapsiz?

O`quvchilar: -O'zbekiston xaritsaini.

2. O`qituvchi: Mana shu go`zal, jannat makon o`lka O`zbekiston.

Agar jannat ko`kda bo`lsa,ostidadir O`zbekiston.

Agar jannat yerda bo`lsa, ustidadir O`zbekiston.

-Biz kimmiz? O`quvchilar: -Buyuk yurt farzandlarimiz.

-Yurtimizni buyukligi qayerda ko`rinadi? O`quvchi: -Ushbu yurtda tug`ilgan buyuk avlodlarlarimizda ko`rinadi. **(Ektranda rasmlar namoyish qilinadi )**

O`qituvchi: -Avlodlarimizdan kimlarni bilasiz? -Musu al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Zahiriddin Muhammad Bobur.



- Suhbatimizni ana shu oxirda keltirgan siymo , qalam va qilich sohibi, Yevropada «Baber», aslida «Bobur» ya`ni («Yo`lbars ) nomi bilan tarixga kirgan , Amir Temur naslining to`rtinchi avlodi, aniqroq qilib aytganda Amir Temur bobomiz o`g`li Mironshohning chevarasi bo`lmish Andijon hukmdori Umar Shayxning o`g`li shoh Zahiriddin Muhammad Bobur haqida fikr yuritimiz.

Bobur bobosi Amir Temur kabi buyuk saltanat bunyod etdi. Bobur tufayli Hindistonda 300 yil hukmronlik qilgan sulola tomirlarida ulug` amir qoni gupurib turardi.Buyuk boburiylardan ko`pchiligi ajoyib hukmdorlar bo`lib tarixga kirdilar.Masalan Boburning nabirasi Buyuk Akbar saltanat sarhadlarini ancha kengaytirishga muvaffaq bo`ldi. Boburning evarasi bo`lmish Shoh Jahon yer yuzidagi barcha mamlakatlar va zamonlar odamlariga tuhfa bo`lgan – sevikli rafiqasi xotirasiga oppoq marmardan bunyod etilgan hashamatli maqbara –Toj Mahalni hadya etdi. (**Dunyoning yetti mo`jizasi ekranda namoyish qilinadi.**) Buyuk boburiylar ya`ni temuriylar san`at va adabiyotni sevar,o`zlari ham yaxshigina ijod qilishar edi.Bunga misol tariqasida Boburning o`lmas asari «Boburnoma» asaridir. (**Ekranda namoyish etiladi.**) O`zbek adabiyoti namoyondalaridan Pirmqul Qodirov qalamiga mansub bo`lgan «Yulduzli Tunlar» romani hamda ushbu roman davomi «Avlodlar dovoni» (**Ekranda namoyish qilinadi.**) Bobur va uning o`g`li Humoyun haqidadir. Darslikning 163-164-sahifalarida romandan parcha keltirilgan

### **3. Yangi mavzuni o`tish**

Bugungi mavzu « Bobur va Humoyun» deb ataladi.O`tiladigan mavzudan siz shoh Bobur Mirzoning qanday go`zal insoniy fazilat egasi ekanligini bilib olasiz.

## Bobur va Humoyun

Bobur dovyurak, epchil ,kuchli,o`ta idrokli inson bo`lgan.U ona yurti Andijonni, oilasini qadrlagan, farzandlarini sevgan.Farzandi uchun o`z jonini berishga tayyor turgan otadir.

Bir kuni Humoyun betob bo`lib qoldi.U tuni bo`yi alahlab behush yotdi.

Saroy tabiblari bu og`ir dardga hech bir davo topolmadilar.Humoyunning onasi Mohimbegim yum-yum yig`laydi. Bobur o`rtanadi. Og`ir paytlarda Boburdan yordam olishga o`rgangan odamlar hozir ham biron chora topishni undan kutadilar. Lekin Boburning o`zi ham chorasizlikdan qiynalardi. Bobur o`ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o`tib, Humoyunning to`shagi yoniga keldi.

–Humoyun, jigarbandim. Sening shu ogir dardingni xudo sendan olib menga bersin... Gulbadanbegimning yozishicha, o`sha kuniyoq Humoyunning ahvoli yaxshilana boshlabdi. Boburning esa mazasi qochib, yotib qolibdi.

**Lug`at ishi:** Humoyun – Hukmdor- Alahlab-  
Evara- Chevara- Betob-

### **4. Mustahkamlash. 1.Savol – javob o`yini.**

Test savollar

1.Bobur va Humoyun hikoyasi muallifi kim?

a) Habib Rahmat b) Safo Ochil d) Pirimqul Qodirov

2.Boburning ona yurtini aniqlang.

a) Samarqand b) Afg`oniston d) Andijon

3.Boburning qaysi farzandi betob bo`lib qoldi?

a) Akbarshoh b) Humoyun d) Mohimbegim

4. Boburning otasi berilgan qatorni ko'rsating.

a) Umar Shayx b) Mironshoh d) Shohjahon

5. Boburiylar tomonidan Hindistonda qaysi maqbara bunyod etilgan?

a) Registon b) Shohi Zinda c) Toj Mahal

6. Boburiylar Hindistonda necha yil hukmdorlik qilganlar?

a) 500 yil b) 200 yil d) 300 yil

O'qituvchi - **Biz kimmiz? O'quvchilar** - Buyuk yurt

farzandlarimiz.

Yurtimiz buyukligi qayerda ko'rinadi? – ushbu yurtda asrlar osha moziydan darak beruvchi obidalardan (Ektranda tarixiy obidalar namoyish qilinadi.)

**Dam olish daqiqasi.** Tez aytishlar mehnat haqida

1. Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam,... (odam mehnati bilan)

2. Halol mehnat – yaxshi odat ... ( Berur senga saodat )

3. Daryo suvini bahor toshirar ,... (Odam qadrini mehnat oshirar)

O'yla izla top

Quyidagi tariflar qaysi faslga tegishli?

1. Dov –daraxtlar mizg'igan,                      2. Daraxt bargi tilla rang

Izg'irin yel izg'igan

Mevalardan tomar bol

Ko'chalar yaraqalaydi

Dalalarga bir qarang

Yulduzlar charaqlaydi

Oq gullardan chamanzor

Tong nurida cho'milib,

Kulib chiqar boychechak

Olqishlarga ko'milib.

«**Boshqotirma**» O'quvchilar ushbu rasmlardagi kasb egalarini topadilar .Boshqotirmadagi kalit so'zini aniqlaydilar. ( Sahna ) so'zi kelib



chiqadi.

Rassom

Sartarosh

Muhandis

Bog`bon

Duradgor

«Yosh aktyor» o`yini o`quvchilar tomonidan ijro etiladi.

O`qituvchi: Hozir siz-u biz texnika taraqqiyoti davrida yashayapmiz. Kompyutersiz taraqqiyotimizni tasavvur qila olmaymiz. Internet so`zlari turmushimizgacha kirib keldi. Shuning uchun undan to`g`ri, keragida foydalanishingiz tarafdoriman. Har doim ota – onangiz nasihatlariga itoat qiling eng go`zal fazilatlaringiz bilan hammaga o`rnak bo`ling. Yoshlikdan ilm olish, hunar o`rganishga har doim shay turing. Dono xalqimizda shunday ibratli maqol bor.

Vaqting ketdi , naqding ketdi. (U. Rahmatullayevning qo`shig`i eshitiriladi )

Faol qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

**5. Uy ishi:** 1. (Yozish uchun ) Lug`atdagi so`zlarga gap yozish

2.Hikoyani o`qib ,og`zaki aytib berishga tayyorgarlik ko`rish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma'naviyat, 2011.
2. Karimov I. A. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy yettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" //“Ma'rifat” gazetasi, 2012-yil. №14, 1-bet.
3. Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. – T: 1997 yil
4. Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – T: 1997 yil
5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining Farmoni “Ta’lim va tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to’g’risida”. – T: 1997-yil 6-oktabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4797-sonli Farmoni. 2016-yil 13-may.
7. Academic Editors: Jennifer L. Holberg, Marcy M. Taylor. Pedagogy: Critical Approaches to teaching Literature, Language, Composition, and Culture. Journal. October 2017.
8. Adabiyot nazariyasi. 2jildlik / akademik M.Nurmuhammedov tahriri ostida.– T: fan, 1978, 1979.
9. Adabiyot o‘qitish metodikasi./A.Zunnunov, N. Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimovlar hammuallifligida. –T: O‘qituvchi, 1992.
10. ADABIYOT. Akademik litseylarning III bosqich o‘quvchilari uchun . – T. “Cho’lpon” 2015.
11. Adabiyotshunoslikka kirish. / T.Boboyev- qo‘llanma.–T: O‘qituvchi, 1979.

12. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2012.
13. Cho'lpon. Adabiyot nadir? –T.:Cho'lpon nashriyoti. 1994, 6-8-betlar.
14. Duysenbayev O.I. O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. F.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent, 2011.
15. Elaine Showalter. Teaching literature. New-York, Blackwell, 2003.
16. Ismatov S. Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish. – T: O'qituvchi. 1978.
17. M.Mirqosimova. "O'quvchilarni adabiy – estetik tahlilga o'rgatish". Toshkent: O'qituvchi, 1994.
18. Matjonov S. "Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar" Toshkent: "O'qituvchi" 1996.
19. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2006. – 112 b.
20. Nishonova S. Adabiyot darslarida tasviriy san'at materiallaridan foydalanishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati G.G'. "O'zbek tili va adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirish" to'plamida. Toshkent: O'zPFITI, 1983. – B. 69-76.
21. Niyazmetova T.R. Adabiy ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish G'G' Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – B. 6-10.
22. Niyozmetova R. O'zbek tili darslarida yangi o'zbek adabiyotini o'qitish masalalari. Toshkent, 2010.

- 23.** O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildlik. 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 556-bet.
- 24.** Qodirov V. Adabiyot o'qitish metodikasi. //ma'ruza matnlari //. – Andijon. 2010. 15-bet.
- 25.** Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent, Sharq, 2006.
- 26.** Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent: Tamaddun, 2010.
- 27.** Sharon Kingen. Teaching language arts in Middle schools: Connecting and Communicating. USA, Lawrence Aerlbaum Associates, 2000.
- 28.** To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 152 b.
- 29.** To'xliyev B., Niyozmetova R. va b. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2011.
- 30.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun adabiyotdan rejalashtirish. – T.: RTM, 2011.
- 31.** Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.
- 32.** Usmonova O. Yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatish usullari. Metodik qo'llanma. – T.: 2008.
- 33.** Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9 sinflar). –Yangiyo'l: Yangiyo'l poligraf service, 2010. 62- bet.
- 34.** XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi.–T: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti". 2009, 3- 4-betlar.

35. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
36. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
37. Yo'ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1994.
38. H.R. Coursen. Teaching Shakespeare with Film and Television. UK, Greenwood Press, 1997.
39. В. Г. Маранцман. Роман А.С. Пушкина «Евгений Онегин» в школьном изучении. М.: 1983. С. 16
40. В.В. Виноградов. Стиль петербургской поэмы, П., 1975. С. 65.
41. [www.e-edu.uz](http://www.e-edu.uz)
42. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)